

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS  
TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI O‘ZBEK TILI VA ADABIYOT  
UNIVERSITETI  
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTINI O‘QITISH FAKULTETI**

**“Himoyaga ruxsat etilsin”**

**Fakultet dekani**

**f.f.d. B.Abdushukurov**

-----

**“---” -----2018 y**

**5111200-“O‘zbek tili va adabiyoti” bakalavr ta‘lim yo‘nalishi IV kurs  
402-guruh talabasi Numonova Mohinur Matlab qizining «Adabiyot o‘qitish  
metodikasining O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasidagi o‘rni»  
mavzusida yozilgan**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Ilmiy rahbar:** \_\_\_\_\_ S.Qambarova  
“O‘zbek adabiyotini o‘qitish  
metodikasi” kafedrası o‘qituvchisi

**Taqrizchilar:**

\_\_\_\_\_ R.Niyozmetova  
“O‘zbek adabiyotini o‘qitish  
metodikasi” kafedrası professori

\_\_\_\_\_ S.Hojimetova  
TDIU qoshidagi  
akademik litsey o‘qituvchisi

**“Himoyaga tavsiya etilsin”**  
“O‘zbek adabiyotini o‘qitish  
metodikasi” kafedrası mudiri  
f.f.d., \_\_\_\_\_ M.Mirzayeva  
2018yil “\_\_\_”- \_\_\_\_\_

**TOSHKENT-2018  
MUNDARIJA**

**BMIning umumiy tavsifi. ....3**

**I BOB. Harakatlar strategiyasi va adabiyot o‘qitishdagi vazifalar ...3**

1.1. O‘zbekistonni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishi va adabiy ta’lim.....6

1.2. Adabiy ta’lim muammolari va istiqboldagi vazifalar.....18

**II BOB. Adabiyot o‘qitishda kompetensiyaviy yondashuv va o‘quvchilar yosh xususiyatlarini hisobga olish.....27**

2.1. Adabiyot o‘qitishda kompetensiyaviy yondashuv.....27

2.2. Adabiyot o‘qitishda o‘quvchilar yosh xususiyatlarini hisobga olish.....35

2.3. Adabiy ta’lim jarayonida mustaqil mutolaa usullari .....40

**III BOB. BMI ning amaliyotga tatbiqi.....52**

3.1. Tajriba-sinov ishlari.....52

3.2. Ochiq dars ishlanmasi tahlili.....66

**Xulosa. ....86**

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....88**

**BMI ning umumiy tavsifi**

**Mavzuning dolzarbligi.** Ilm-fan va texnologiyalarning jadal rivojlanishi, global dunyoda raqobatning ortishi sharoitida har bir davlat va jamiyatning bu jarayonda raqobatbardoshligi yoshlarning intellektual rivoji hamda ularning iste'dodi va qobiliyatlarini to'liq amalga oshirishga e'tibor berishga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun bu masala har doim davlatlarning uzoq muddatli rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan barcha strategiyalarda aks ettirilgan. O'zbekiston Respublikasining 2017-2021 yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasi ham bu borada istisno bo'lmadi. Prezident Sh.Mirziyoev: *“Bolalarimizni birovlarining qo'liga berib qo'ymasdan, ularni o'zimiz tarbiyalashimiz lozim... Bu vazifalarni amalga oshirishda biz asrlar mobaynida shakllangan milliy an'analarimizga, ajdodlarimizning boy merosiga tayanamiz”*<sup>1</sup> deb ta'kidlaydilar.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirish, uni jahon ta'limi standartlari darajasiga ko'tarish, shaxsni har tomonlama barkamol qilib voyaga etkazish, shuningdek, malakali pedagog kadrlarni tayyorlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilandi.

Ayni paytda jamiyatda ro'y berayotgan ijtimoiy o'zgarishlarni o'z ko'zi bilan ko'rib, ularni ongli his etadigan, davrning global masalalari xususida mustaqil fikrlovchi ijtimoiy-ma'naviy faol avlod shakllanmoqda.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek, *“...ta'limdan asosiy maqsad bolalarga ilgarigidek bilim berish emas, bilim olishga o'rgatishdir. Bunda o'quvchilar passiv tinglovchi bo'lib qolmay, balki bilim olish jarayonining faol ishtirokchisiga aylanishi kerak... Agar bolalar erkin fikrlashga o'rganmasa, berilgan ta'lim samarasi passiv bo'lishi muqarrar”*<sup>2</sup>.

Ijtimoiy hayotni isloh qilish avj olishi tufayli ma'naviy madaniyatning qudratli qatlamlari ochila borishi davom etmoqda. Ular xalq ruhiyatida insonparvarlik, milliy iftixor tuyg'ulari shakllantirilishida asos vazifasini

---

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш - юрт тараққиёти ва фаровонлигининг гарови “Халқ сўзи” // 2016 йил 8 декабрь.

<sup>2</sup> Karimov I.A. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. -T., O'zbekiston. 1997. -156-b.

o‘tamoqda. Milliy g‘urur tuyg‘usi shakllanishida esa badiiy adabiyot namunalarning o‘rni beqiyos.

Har tomonlama barkamol avlod ta‘lim-tarbiyasi barcha davrlarda ham muhim bo‘lgan masala hisoblangan. Barkamol avlodni tarbiyalash uchun ularning ijodiy qobiliyatini o‘stirish, mustaqil fikrlash malakalarini rivojlantirish katta ahamiyatga ega. Hozirgi vaqtda xalqimiz oldida turgan yuksak maqsadlarga erishish uchun mamlakatimizda yosh avlodning har tomonlama kamol topishiga xizmat qiladigan ijtimoiy tizim ishlab chiqilgan.

Prezidentimiz tomonidan kelajak avlod tarbiyasiga berilayotgan bunday katta e‘tibor ta‘lim tizimi va pedagoglar zimmasiga ulkan vazifalarni yuklaydi. Bu vazifalarni amalga oshirish esa chuqur bilim hamda katta mahoratni talab qiladi.

**BMI ning ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** BMI mavzusi Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU O‘zbek tili va adabiyotini o‘qitish fakulteti "O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi" kafedrasida 2016-2018 – yillarga rejalashtirilgan BMI mavzular bankida aks etgan.

**Tadqiqotning maqsadi:** Adabiyot o‘qitish metodikasining O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasidagi o‘rni masalalarini tadqiq qilish.

**Tadqiqotning vazifalari:**

- O‘zbekistonni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishi va adabiy ta‘lim muammolarini tahlil qilish;
- Harakatlar strategiyasi yuzasidan adabiy ta‘limda amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha ma‘lumotlar to‘plash;
- umumiy o‘rta ta‘lim, akademik litseylar uchun kompetentsiyaviy yondashuv asosida yaratilgan DTS, dastur hamda darsliklaridagi mavzularning berilish darajasini o‘rganish, mavjud holatning aniq tavsifini berish;
- adabiy ta‘lim jarayonida mustaqil mutolaa usullarini tanlash, tahlil qilish;
- mavzuga mos samarali natija beradigan metod, vosita va zamonaviy texnologiyalarni amaliyotga tatbiqini tayyorlash;

- muammoga oid tajriba-sinov ishlarini tashkil etish, ularning natijalarini umumlashtirish;
- mavzu va muammo yechimiga bog‘liq bo‘lgan tavsiyalar tizimini ishlab chiqish;
- dars ishlanmalari va tahlillar ilova qilish.

**Tadqiqotning obyekti:** Umumta’lim maktablarida va akademik litseylarda O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasidagi vazifalarning adabiy ta’limda uzviy olib boriladigan ishlar jarayoni.

**Tadqiqotning metodologik asoslari va metodlari.** O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning milliy g‘oya va milliy mafkura, barkamol avlod tarbiyasi bilan bog‘liq asarlaridagi nazariy qarashlar, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning asarlari va nutqlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ma’naviy-ma’rifiy ishlar sohasidagi qarorlari va dasturiy hujjatlari tadqiqot uchun metodologik asos qilib olindi. Ishda qo‘yilgan barcha muammolarni tadqiq etishda pedagogika va adabiy ta’lim metodikasi ilmining eng so‘nggi yutuqlariga, ma’naviy-axloqiy tarbiya va adabiyot o‘qitish muammolari bilan shug‘ullangan metodist olimlarning ilmiy-nazariy mulohazalariga asoslanildi. Shuningdek, nazariy-mantiqiy tahlil, taqqoslash; suhbat, ilg‘or pedagogik tajribalarni umumlashtirish; kuzatish; klaster, hamkorlikda ishlash kabi metodlar asosida tahlillar olib borildi.

#### **Tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati.**

Adabiyot o‘qitishda kompetentsiyaviy yondashuv va o‘quvchilar yosh xususiyatlarini hisobga olishga doir tavsiyalar ishlab chiqiladi. Adabiy ta’lim jarayonida mustaqil mutolaa usullari, ta’lim shakllari, vositalari, metod va usullari yangi pedagogik texnologiya, axborot texnologiyasi nuqtai nazaridan tadqiq etiladi. Ishning materiallari va tavsiyalaridan, dars ishlanmalaridan ona tili va adabiyot o‘qituvchilari amaliyotda foydalanishi mumkin.

**Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi.** BMI mavzusi Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU “O‘zbek adabiyotni o‘qitish metodikasi” kafedrasida yig‘ilishida muhokama qilinib, himoyaga tavsiya qilingan. Ushbu tadqiqot

natijalari va materiallari malakaviy pedagogik amaliyot oʻtagan TDIUqoshidagi akademik litsey oʻquvchilariga Oʻzbek adabiyoti fanidan dars mashgʻulotlari oʻtish jarayonida amaliyotga joriylashtirilgan, ochiq dars oʻtkazilgan (ochiq dars ishlanmasi ilova qilinadi).

**Ishning tarkibiy tuzilishi.** Bitiruv malakaviy ishi uch bob, umumiy xulosalar va foydalanilgan adabiyotlar roʻyxatidan iborat. Ishning umumiy hajmi 90 sahifani tashkil etadi.

## **I bob. Harakatlar strategiyasi va adabiyot o‘qitishdagi vazifalar**

### **1.1. O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi va adabiy ta’lim**

Ma’lumki, yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda.

“Tarbiya qancha mukammal bo‘lsa, xalq shuncha baxtli yashaydi”, deydi donishmandlar. Tarbiya mukammal bo‘lishi uchun esa bu masalada bo‘shliq paydo bo‘lishiga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi.<sup>3</sup>

Barchangizga ayon, hozirgi kunda dunyo miqyosida beshafqat raqobat, qarama-qarshilik va ziddiyatlar tobora keskin tus olmoqda.

Diniy ekstremizm, terrorizm, giyohqandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, “ommaviy madaniyat” kabi xavf-xatarlar kuchayib, odamzot asrlar davomida amal qilib kelgan e’tiqodlar, oilaviy qadriyatlarga putur yetkazmoqda. Mana shunday va boshqa ko‘plab tahdidlar insoniyat hayotida jiddiy muammolarni keltirib chiqarayotgani – ayni haqiqat va buni hech kim inkor etolmaydi.

Sizlarga yaxshi ma’lum, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohot va o‘zgarishlar, keng ko‘lamli dasturlar yagona va ulug‘ bir maqsadga qaratilgan. U ham bo‘lsa, xalqimiz hayotini yanada obod va farovon qilish, farzandlarimizni har tomonlama yetuk va burkamol etib tarbiyalashdan iborat.

Shu ezgu yo‘lda barchangizga eng oliy saodatni – xalqimiz va Vatanimizga hamisha munosib farzand bo‘lish baxtini tilayman.<sup>4</sup>

Shu o‘rinda alohida qayd etish zarurki, yurtimizda yosh avlodni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash, voyaga yetkazish borasida ko‘plab ishlar amalga oshirilyapti. Zamon talabiga javob beradagan yuksak ma’naviyatli, bilimdon insonlarni tarbiyalash davlatimiz siyosatining ustivor yo‘nalishiga aylanmoqda.

---

<sup>3</sup> Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev. Jismoniy va ma’naviy barkamol yoshlar – bugungi va ertangi kunimizning hal qiluvchi kuchidir. “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatining IV quriltoyida so‘zlangan nutqi. 2017-yil 30-iyun.

<sup>4</sup> Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev. Ozod va obod vatanning barkamol farzandlari. Jizzax shahrida bo‘lib o‘tgan “Barkamol avlod” sport o‘yinlari qatnashchilariga yo‘llangan tabrik so‘zi. 2017-yil 25-may.

O‘zbekiston Prezidenti 7-fevral kungi farmoni bilan 2017—2021-yillarda O‘zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini tasdiqladi.<sup>5</sup> Strategiya loyihasi dolzarb hamda aholi va tadbirkorlarni tashvishga solayotgan masalalarni kompleks o‘rganish, qonunchilik, huquqni muhofaza qilish amaliyoti va xorijiy tajribani tahlil qilish yakunlari bo‘yicha ishlab chiqildi. Hujjat internetda e‘lon qilinib, ekspertlar va jamoatchilikning keng muhokamasidan o‘tdi.

Harakatlar strategiyasi besh bosqichda amalga oshirilib, ularning har biri bo‘yicha yil nomlanishidan kelib chiqqan holda alohida bir yillik davlat dasturini tasdiqlashni nazarda tutadi. Xususan, 2017 yil — Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili deb e‘lon qilindi.

2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi:

- davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirishga yo‘naltirilgan demokratikislohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda parlamentning hamda siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish, davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish, davlat xizmatining tashkiliy-huquqiy asoslarini rivojlantirish, “Elektron hukumat” tizimini takomillashtirish, davlat xizmatlari sifati va samarasini oshirish, jamoatchilik nazorati mexanizmlarini amalda tatbiq etish, fuqarolik jamiyati institutlari hamda ommaviy axborot vositalari rolini kuchaytirish;

- qonun ustuvorligini ta‘minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishga yo‘naltirilgan sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini mustahkamlash, ma‘muriy, jinoyat, fuqarolik va xo‘jalik qonunchiligini, jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish tizimi samarasini oshirish, sud jarayonida tortishuv tamoyilini to‘laqonli joriy etish, yuridik yordam va huquqiy xizmatlar sifatini tubdan yaxshilash;

---

<sup>5</sup> O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi. T., 2017



- iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirishga yo‘naltirilgan makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o‘shirish sur‘atlarini saqlab qolish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish bo‘yicha institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag‘batlantirish, hududlar, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib holda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy ettirish, investitsiyaviy muhitni yaxshilash orqali mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy sarmoyalarni faol jalb etish;




- - **I. Davlat va jamiyat qurilish tizimini takomillashtirish**  
(**Moviy xavorang** – osmon va toza suv ramzi, bуюk Amir Temur davlatining байроғининг ранги)
- - **II. Qonun ustuvorligini taъminlash va sud-huquq tizimini yanada isloх qilish**  
(**Siyehrang** – qonuniylik elementlari hisoblangan ustuvorlik va or-nomuslik ramzi)
- - **III. Iqtisodiyotni rivojlantirish va erkinlashtirish**  
(**Tilzalarang** – iqtisodiyotni rivojlantirish elementlari hisoblangan kuch-qudrat va бойлик ramzi.)
- - **IV. Ijtimoiy sohani rivojlantirish**  
(**Qizil rang** – haёт va aholining munosib turmush tarzini taъminlash ramzi)
- - **V. Xavfsizlik, diniy bag‘rikenlik va millatlararo totuvlik, ўzaro manfaqli va amaliy tashqi siёsat**  
(**Oq rang** – tinchliksevarlik siёsati elementlari hisoblangan tinchlik va soфlik ramzi)

- ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo‘naltirilgan aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirib borish, ijtimoiy himoyasi va sog‘lig‘ini saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, arzon uy-joylar barpo etish, yo‘l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish bo‘yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, ta’lim, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san’at

va sport sohasini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish;

- xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritishga yo'naltirilgan davlatimiz mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, O'zbekistonning yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo'shnichilik muhitini shakllantirish, mamlakatimizning xalqaro nufuzini mustahkamlash kabi vazifalarni o'zida jamlaydi.

#### **IV. ИЖТИМОЙ СОҶАНИ РИВОЖЛАНТИРИШ**



Mazkur strategiyaning to'rtinchi ustuvor yo'nalishi sifatida belgilangan Ijtimoiy sohani rivojlantirishga qaratilgan chora tadbirlar doirasida ta'lim va fan sohasini rivojlantirish muhim vazifalardan biri etib belgilangan va u quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish;

- ta'lim muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash, ularni zamonaviy o'quv va laboratoriya asboblari, kompyuter texnikasi va o'quv-metodik qo'llanmalar bilan jihozlash orqali ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash yuzasidan maqsadli chora-tadbirlarni ko'rish;

- maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish va ushbu muassasalarda bolalarning har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash, bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishini jiddiy oshirish va foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash, pedagog va mutaxassislarining malaka darajasini yuksaltirish;

- umumiy o'rta ta'lim sifatini tubdan oshirish, chet tillar, informatika hamda matematika, fizika, kimyo, biologiya kabi boshqa muhim va talab yuqori bo'lgan fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o'rganish;

- bolalarni sport bilan ommaviy tarzda shug'ullanishga, ularni musiqa hamda san'at dunyosiga jalb qilish maqsadida yangi bolalar sporti ob'ektlarini, bolalar musiqa va san'at maktablarini qurish, mavjudlarini rekonstruksiya qilish;

- kasb-hunar kollejlari o'quvchilarini bozor iqtisodiyoti va ish beruvchilarning ehtiyojlariga javob beradigan mutaxassisliklar bo'yicha tayyorlash hamda ishga joylashtirish borasidagi ishlarni takomillashtirish;

- ta'lim va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta'lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish, oliy ta'lim muassasalariga qabul kvotalarini bosqichma-bosqich ko'paytirish;

- ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy-eksperimental laboratoriyalar, yuqori texnologiya markazlari va texnoparklarni tashkil etish.<sup>6</sup>

Mamlakatimizda ta'lim va tarbiyaga davlat ahamiyati darajasida e'tibor berilayotgan bir davrda yosh avlodni yetuk mutaxassis va komil inson qilib voyaga yetkazishda har bir o'qituvchi o'z zimmasidagi mas'uliyatni sidqidildan bajarishi lozim. Bu jarayonda har bir fanning rivojlanish tarixi, ajdodlarimizning unga qo'shgan hissasi hozirgi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlari, uning yutuq va yangiliklari haqida yosh avlodga ma'lumot berib

---

<sup>6</sup> [http://old.lex.uz/pages/getpage.aspx?lact\\_id=3107036](http://old.lex.uz/pages/getpage.aspx?lact_id=3107036)

borish kerak. Bunda shaxsning ijobiy sifatlari bo'lgan xushmomalilik, axloqiylik, mehnatsevarlik, kamtarlik, mehribonlik, rahimdillik, saxovatlilik, oqko'ngillilik, bag'rikenglilik, vatanparvarlik, haqiqatgo'ylik, o'zgalarni tushuna olish, muhtojlarga yordam ko'rsatishga tayyorlik, kattalarni hurmat qilish, kichiklarga izzat ko'rsatish, intizomlilik va boshqa ma'naviy-axloqiy sifatlar shakillanadi hamda rivojlanadi. Vatanparvar shaxs o'zi mansub bo'lgan millat o'tmishi, urf-odatlarini, an'analari, qadriyatlariga sodiq bo'lishi, Vatan va millat tarixidan g'ururlanishi lozim. Yosh avlodda bunday vatanparvarlik sifatlarni shakillantirish va rivojlantirishda adabiyot fanining ham o'z o'rnini va mas'uliyati bor.

Mustaqillik yillarida hayotimiz farovon, dasturxonimiz to'kin bo'lib, yurtimiz esa tinch va barqaror rivojlanib kelmoqda. Birinchi Prezidentimiz tomonidan poydevori qo'yilgan davlatimiz Harakatlar strategiyasi asosida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan o'zining pishiq mustahkam g'ishtlarini qo'yimoqda. Bugungi globallashuv davrida jahon miqyosida chuqur moliyaviy inqiroz davom etayotgan, raqobat tobora kuchayib borayotgan keskin bir sharoitda mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot yo'li har tomonlama tahlil qilinib, davlatimizni barqaror va jadal suratlar bilan rivojlantirish, olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish maqsadida, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustivor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi ishlab chiqildi. Ushbu strategiyada davlat va jamiyat qurilishini rivojlantirish, qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini isloh qilish, iqtisodiyotni yanada rivojlantirish, xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish kabi masalalar taraqqiyotimizning asosiy yo'nalishlari sifatida belgilab olindi.

Mazkur strategiyaga muvofiq, barcha soha va tarmoqlar qatori fan va ta'lim tarbiyaga xususan adabiyot rivojini yangi bosqichga ko'tarishga alohida

e'tibor qaratilmoqda. Zero, "Adabiyotga e'tibor - ma'naviyatga, kelajakka e'tibordir". Bu fikrlarimizning yorqin misoli sifatida prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning mamlakatimiz ijodkor ziyolilar vakillari bilan 2017-yil 3-avgustdagi uchrashuvi barchamizni to'liqlantirdi va ijodkor ziyolilar faoliyatiga katta e'tibor bo'ldi.

Tarixdan ma'lumki, qaysi davlatda hukmdor adabiyot va san'at ahliga homiylik qilsa, o'sha davlatning ilm-fani gullab yashnardi. Bunga Sohibqiron bobomiz Amir Temurning faoliyati yaqqol dalildir.

Azaldan xalq ijod ahliga juda katta hurmat va ishonch bilan qarashgan. Buning boisi Yaratganning o'zi noyob iste'dod va salohiyatni ijodkorlarga ato etadiki, bunday xususiyat har kimga ham nasib etavemaydi. Gorg'kiy aytganidek, "ijodkorga 1 foiz iste'dod beriladi, 99 foiz mehnat uning o'zidandir". Hozirda mustaqil O'zbekistonimizda ijod qilish uchun to'liq sharoitlar yaratib berilgan. Avvalo, ijod erkinligi mavjud. Ularning ijod qilishlari uchun so'lim va osuda go'shalarimiz esa ilxom manbai vazifasini o'tamoqda. G'amxo'r davlatimiz esa ularnig sog'ligi, ijodiy hamkorligi va kitoblar nashri uchun qulayliklar yaratib bermoqda. Birgina misol, 2010 yildan Yozuvchilar uyushmasining "Ijod" fondi tomonidan "Birinchi kitobim" rukni ostida 1 milliard 300 million mablag' sarflanib, 73 nomda, jami 1 million 220 ming nusxada yosh ijodkorlarning kitoblari nashr etildi va ular mamlakatimizning barcha ta'lim muassasalariga bepul yetkazib berildi. Bu kitob mualliflarining ko'pchiligi o'rta-maxsus kasb hunar va oliy ta'lim o'qituvchilari, o'quvchi-talabalari ekanligi kishini quvontiradi. Shu asnoda shuni ham aytish kerakki, ijod qilib xalqning dardiga darmon bo'luvchi asarlar yozgan mashhur shoir va yozuvchilarimizning mehnati ham qadr topmoqda<sup>7</sup>.

Hududlarda ulug' ijodkorlarimizning nomi bilan ataladigan ijodiy maktab va markazlar tashkil etish to'g'risida prezident qaror va farmoyishlari qabul

---

<sup>7</sup> [www.tilvaadabiyot.uz](http://www.tilvaadabiyot.uz) sayti

qilindi. Namangan viloyatida ulkan ma'rifatparvar Ibrat domla, Jizzax shahrida atoqli ijodkorlar **Zulfiya va Sharof Rashidov, Nukus shahrida O'zbekiston qahramoni xalq shoiri Ibrohim Yusupov, Farg'ona, Qashqadaryo va Andijon viloyatlarida Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Muhammad Yusuf xotiralarini** abadiylashtirish ishlari olib borilayotganligi e'tiborga loyiqdir. Namlari e'tirof etilgan ijodkorlar xotirasi ulug'lanib ular to'g'risida ijodiy maktablar, muzeylar va adabiy markazlarning tashkil etilishi mazkur o'quv yurtlarida o'qiydigan va barcha yoshlar uchun ibrat va namuna maktabini o'tamoqda. Ta'lim-tarbiya sifatini oshirishda bosh omillardan biri yosh avlod ongida kitobga bo'lgan hurmat ilm-fanga ayniqsa, badiiy adabiyotga bo'lgan qiziqish va o'qishni kuchaytirish ham ahamiyatlidir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 19-yanvardagi "Qashqadaryo viloyati hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi 20-sonli qarori ijrosi yuzasidan O'zbekiston Qahramoni, O'zbekiston Respublikasi Xalq shoiri Abdulla Oripov nomidagi ona tili va adabiyot faniga chuqurlashtirib o'qitishga ixtisoslashtirilgan maktab-internat tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-apreldagi PQ-2873-sonli qaroriga asosan Investitsiya Dasturi asosida Abdulla Oripov nomidagi maktab-internatini tashkil etish maqsadida viloyat "Barkamol avlod" bolalar markazi binosida 125 o'quvchi o'rniga mo'ljallangan maktab-internat, 50 o'rinli yotoqxona va 50 o'rinli oshxona binosini qurish maqsadida 3 200 mln so'm mablag' ajratildi<sup>8</sup>.

Jizzax shahrida o'zbek tili va adabiyotini chuqur o'qitishga ixtisoslashgan Hamid Olimjon va Zulfiya ya nomidagi maktab-internat ochildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 23-iyundagi "Jizzax shahrida Hamid Olimjon va Zulfiya nomidagi ona tili va adabiyoti fanini chuqurlashtirib o'qitishga ixtisoslashtirilgan maktab-internatni tashkil

---

<sup>8</sup> www.tilvaadabiyot.uz sayti

etish to'g'risida" gi qarori bilan bu ezgu maqsad amalga oshirildi. O'tgan besh oy davomida o'zbek tili va adabiyotini chuqur o'qitishga ixtisoslashgan maktab-internat uchun 4 qavatli zamonaviy bino qurib bitkazildi. Binoda keng va yorug' sinfxonalardan tashqari 100 o'rinli yotoqxon va oshxona, faollar zali hamda boshqa xonalar bor. O'quvchilar jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishi uchun sport maydonchalari barpo etilgan. Joriy yil 1-oktabrdan faoliyat boshlagan maktab-internatning 5-, 6-, 7-, 8-sinflariga barcha tuman va shaharlardan sinov asosida 120 nafar iste'dodli o'g'il-qiz o'qishga qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish buyicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risidagi" 2017-yil 13-sentyabrdagi qarori ayni shu sohada, millat ma'naviyatini tarbiyalash uchun o'z vaqtida tashlangan qadam bo'ldi. Darhaqiqat, badiiy adabiyot hayot maktabidir. Abdulla Avloniy bobomiz aytganidek, "Ta'lim-tarbiya biz uchun hayot mamot masalasidir". Kitob esa shu hayot yo'llarini badiiy inkishofidir. Xalqimiz avvalo, yoshlarning ma'naviy-ma'rifiy, badiiy estetik talablariga javob beradigan kitoblarning kitob javonlarida bo'lishi, ularni o'qib tahlil qila olishi ayniqsa, elektron kitob o'qish ko'nikmalarini shakllantirish bugunning dolzarb masalalaridan bo'lib kelmoqda. Shu asnoda milliy badiiy asarlarimiz bilan birga jahon adabiyotining eng sara asarlarini qiyoslab o'qish o'quvchida keng fikrlilik, jahon madaniyatidan, xalqlarning yashash tarzidan xabardorlik, jannatmakon O'zbekistonda tug'ilganlikdan shukronalik tuyg'usini hadya etadi.

Barchaga ma'lumki, inson umrining eng tig'iz va ko'p kitob o'qiladigan vaqti bu o'rta maxsus ta'lim davriga to'g'ri keladi. Buning sababi bu yoshda inson o'zligini anglash va hayotda o'z o'rniga ega bo'lishga harakat va yoshlarining oliy ta'lim muassasalariga kirish uchun tinimsiz ilm-fanga doir kitoblarni o'qishdir. Ma'lumki, kitob mutolaasi aqliy faoliyat xazinasidir. Bu

xazinani to'ldirish esa o'quvchining sog'ligi, ruhan va jismonan bardamligi va xotirasi bilan bog'liq jarayondir. O'rta maxsus ta'lim muassasalarida kitob o'qishga qiziqishni va undan estetik zavqni tuyish, uning uzoq vaqt xotirada saqlanib qolishi uchun kichik bog'larni tashkil etish yaxshi natija beradi deb o'ylaymiz. Unda o'quvchilarga mos o'rindiqlarning bo'lishi, manzarali va mevali daraxtlarning toza havosi kitob mutolaasiga ijobiy ta'sir qiladi.

Tasavvur qiling, o'quvchi Hamid Olimjonning she'riy to'plamini o'qiyapti:

Derazamning oldida bir tup

O'rik oppo bo'lib gulladi...

Novdalarni bezab g'unchalar

Tongda aytdi hayot otini

Va shabboda urg'ur ilk sa!ar

Olib keldi gulning totini.

Ushbu misralarni o'qigan o'quvchi shoirning "men"ini ko'z oldiga keltiradi, tabiiy muhit unga hamroh bo'ladi. Natijada o'quvchi ongida bir umrga she'riy parchalar yod bo'lib qoladi. Kitob mutolaasi tong paytida o'qilsa undagi ma'lumotlarning deyarli barchasi o'quvchining aql va ko'ngil mulkiga aylanadi.

Kitobni o'qib uqadigan o'quvchidan kelajakda o'z kasbining yetuk mutaxassisi yetishib chiqadi. Alohida iqtidor egalari bo'lgan yoshlarni o'z iqtidori bo'yicha oliy o'quv yurtlariga o'qishini davom ettirishi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublika oliy ta'lim muassasalari bakalavriatiga kirish testlarini o'tkazish tartibi to'g'risida"gi 2017-yil 16-noyabr qarorida diqqatga sazovor holatlar aytib o'tildi. Jumladan, ijodkorlik individual mahoratni talab etadigan madaniyat, san'at, dizayn, tasviriy va amaliy san'at, san'atshunoslik, musiqiy ta'lim, sport va jismoniy tarbiya" sohalariga



bundan keyin test sinovlari asosida emas, ijodiy imtihon asosida o‘qishga kiritadigan bo‘lindi. Ona tili va adabiyot sohasida yagona markazlashgan Alisher Navoiy nomidagi til va adabiyot universitetiga abituriyentlarning o‘qishga kirishida ijodiy-tavsifiy insholarning olinishi ijodkor o‘quvchilarni quvontirib, ruhiyatiga quvvat bag‘ishlamoqda. Farzand tarbiyasi, dunyoni idrok qilishi va uning iqtidorini shakllanishi psixologik ma’lumotlarga ko‘ra, 3-7 yoshga to‘g‘ri kelar ekan. Bu esa bog‘cha ta’lim tarbiyasiga to‘g‘ri keladi.

Xalqimizda bir naql bor: “Bo‘larman bola boshdan ma’lum”. Shunday ekan, Prezidentimizning 2017 yil 30 sentyabrdagi “Maktabgacha ta’lim boshqaruvini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonini anglagan holatda farzandlarimizni yoshlikdan sog‘lom qilib, ularni oila va bog‘chada iqtidorlarini rag‘batlantirmoq lozim.

Qaysi sohani olmaylik zamonaviy yetuk kadrlarni tarbiyalamasdan turib, biron-bir o‘zgarishga, farovon hayotga erisha olmaymiz. Bunday kadrlarni, millatning sog‘lom genofondini tayyorlash avvalo, maktabgacha ta’lim muassasalari ta’lim tizimiga borib taqaladi. Maktabgacha ta’limda iqtidor shakllantirilsa, maktabda ma’lum fan bilimlariga ega bo‘linadi, o‘rta maxsus ta’lim tizimida bilimlar kasb-hunarga qaratilganligi bilan xarakterlanadi. O‘rta maxsus ta’lim tizimida DTS bo‘yicha o‘quvchi fanlar bo‘yicha bilimga ega bo‘lishi, umuminsoniy fazilatlariga ega bo‘lish, vatanparvarlikni anglash, mantiqiy fikrlash. qobiliyati va uni qo‘llay bilish, ma’naviy axloqiy madaniyatga ega bo‘lish kabi bitiruvchilarga qo‘yiladigan umumiy talablar bilan birgalikda o‘quvchining kitobxonlik madaniyatiga ega bo‘lishi, o‘z iqtidori bo‘yicha bilimlarini ijodiy, og‘zaki va yozma aks ettirishi, she’rni ifodali yoddan ayta olishi, badiiy asarlarni tahlil qila olishi kerak deb o‘ylaymiz.

Darhaqiqat, o‘quvchining adabiyotga oshuftaligi, badiiy asar zavqini tuya olishi va uni ifodalashi uning ilmiy va ma’naviy savodxonligini belgilaydi. Ma’rifatparvar shoirimiz Ishoqxon Ibrat aytganidek:

Ilmdan bir shu’la dilga tushgan on,

Shundan bilursanki, ilm bepoyon.

## **1.2. Adabiy ta'lim muammolari va istiqboldagi vazifalar**

Har millat boshqalardan farq qiluvchi yashash tamoyili, fikrlash tarzi bilan o'zligini ko'rsatadi va tasdiq etadi. O'zlikni namoyon etuvchi yorqin vositalardan biri "... millatning dunyoda borlig'ini ko'rsatadurg'on oyinai hayoti uning tili va adabiyotidir"<sup>9</sup>. Insonning borliqni go'zallik o'lchovlari asosida idrok etib, tom ma'nodagi odamiylik siyratini kasb etishida so'z san'atining ayricha o'rni va ahamiyati bor. Jamiyat a'zolarining kitobxonlik darajasi mamlakat aholisi ning

ma'naviy maqomini belgilovchi yetakchi omillardan biri ekani ham bejiz emas.

"Yuksak didli kitobxon kishilar jamiyati ma'naviy tozaradi, ma'naviy tozargan jamiyat esa har tomonlama taraqqiy topishi barchaga ayon va tushunarli haqiqatdir. Respublikamizda mamlakat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy taraqqiyotiga o'zini mas'ul bilgan shaxslar – oddiy xodimdan davlat rahbarigacha madaniy, adabiy merosni xalqimizga, xususan, yosh avlod ongiga singdirishga alohida e'tibor qaratayotgani ham shundan"<sup>10</sup>. Mamlakatimiz Rahbari Shavkat Mirziyoyevning shaxsan o'zi yurtimizda kitobxonlik madaniyatini oshirishga bosh bo'layotgani bu masalaga jamiyatimizda ayricha e'tibor qilinayotganligi dalilidir.

Jamiyat kitobxonligining darajasi bevosita adabiy ta'limning sifatiga bog'liq. Sifatli adabiy ta'lim mag'zi to'q bitiklarni farqlash, sara asarlarni o'qish, o'qilganlarni uqish, estetik zavq olish va bu orqali ruhan, ma'nan, aqlan ulg'ayish asosi bo'lib xizmat qiladi. Lekin ayni paytda adabiy ta'lim ushbu vazifani ko'ngildagidek uddalayapti, deb ayta olmaymiz. Bu borada yillar davomida to'planib qolgan qator muammolar borki, ularni hal qilmay turib

---

<sup>9</sup> Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq. T.: Sharq, 1999. 23-bet.

<sup>10</sup> Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T.: Ma'naviyat, 2008. 30–35-betlar.

ko‘zlangan samaraga erishib bo‘lmaydi. Bizningcha, mazkur muammolarning ikki: obyektiv

va subyektiv sabablari mavjud bo‘lib, ularning biri boshqasining chuqurlashuviga sabab bo‘lmoqda. Obyektiv omillar o‘qituvchi shaxsiyatidan ko‘ra ko‘proq ta‘lim mazmunini tashkillashtiruvchi muassasalar, direktiv hujjatlar bilan bog‘liq. Biz bunda, avvalo, standartlar, dasturlar, darslik va metodik hamda o‘quv qo‘llanmalarini nazarda tutmoqdamiz. Mustaqillik yillari adabiyot bo‘yicha DTS hamda o‘quv dasturlari ishlab chiqilib, bir necha bor takomillashtirildi, darsliklarning bir necha avlodi chop etildi. Mazkur hujjatlar sho‘ro davriga nisbatan olinganda tubdan o‘zgargan, takomillashgan. Ular oldindan belgilab qo‘yilgan sun‘iy qoliplar asosida emas, balki milliy va umuminsoniy qadriyatlarga, muayyan darajada jahon ta‘lim tizimida erishilgan yutuqlarga asoslangan, yangi pedagogik tafakkurga tayangan holda yaratilgan.

Keyingi takomillashtirilgan dastur va u asosda yaratilgan darsliklardan kelib chiqib quyidagi xulosaga to‘xtalamiz: muammolarning yechimi bitta – endi psixologik, pedagogik, didaktik va metodik bilimlarni omuxtalagan holda ilmiy asoslangan dastur yaratish vaqti keldi. Aynan ana shunday dastur yo‘qligi tufayli hozirda yuqori sinf o‘quvchilari u yoqda tursin, o‘qituvchilarning o‘zi ham tushunishga va tushuntirishga qiynalayotgan siyosiy va falsafiy xarakterdagi Jonatan Sviftning “Gulliverning sayohatlari” romani, Antuan de Sent-Ekzyuperining “Kichkina shahzoda” qissasi, Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostonidan parchalar 5-sinfda berilgani holda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari saviyasidagi Xayriddin Salohning “Yulduzlar afsonasi” balladasi 7-sinfda o‘qitilmoqda<sup>11</sup>. Ilmiy asoslangan dastur ishlab chiqilmagani bois ayrim band, baytlarini hatto oliy ta‘limda saboq berayotgan professor-o‘qituvchilar sharhlashda o‘ylanib qolayotgan Turdi Farog‘iyning “Tor ko‘ngullik beklar” muxammasi 7-sinfga, Lutfiyning ayrim g‘azallari 8-sinfga kiritilgan va hokazo.

---

<sup>11</sup> Yo‘ldoshev Q, Qodirov V, Yo‘ldoshbekov J. Adabiyot. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik- majmua. Toshkent, 2015.

O'quvchi qaysi yoshda hayotdagi qanday voqeliklarni to'g'ri qabul qiladi, nimalarni faqatgina zohiran tushu nibgina qolmay, muayyan darajada kengroq idrok etib, mohiyatiga kira oladi, yosh xususiyatlari qachon va qan day tuyg'ularni his qilishga imkon beradi va bulardan kelib chiqib, qaysi asarni qaysi sinfda, qanchalik hajmda taqdim qilish kerak – ilmiy asoslangan dasturda mana shu jihatlar e'tiborga olinishi shart. Aks holda sarfl anayotgan pedagoglar mehnati va davlat mablag'i o'z o'rnini topmay qolaveradi. Hozirda adabiyot o'qitish metodikasi bundan hali ancha yiroqda.

Metodika fani berilgan bilim, shakllantirilgan ko'nikma va malakalarning hayotiyiligini, amaliyotga yaroqliligini ta'minlaydigan asosiy omildir. Ta'limning hamma bo'g'inidagi oqsoqliklar aynan metodikaning nomukammalligi, noqisligi tufayli yuzaga kelmoqda. Amaliyotdan qaynab chiqqan, o'qituvchini, o'quvchi (talaba)ni his etadigan va ta'lim amaliyotini teran tushunadigan haqiqiy metodistlarni tayyorlash mamlakatimiz ta'limining ustuvor vazifalaridan biri sifatida belgilanishi kerak. Metodika fanining rivojidan manfaatdor soha, shubhasiz, ta'limdir. Ta'lim tizimi metodikaning rivoji haqida qay g'urishi, kerak bo'lsa, mamlakat miqyosida uning tom ma'noda shakllanishi, yuksalishi uchun takliflar, talablar bilan chiqishi lozim.

Ta'lim metodika faniga nisbatan buyurtmachi vazifasini o'tashi kerak. Adabiyot misolida fikr yuritsak, ta'lim amaliyotidagi ehtiyojdan kelib chiqib, metodika ham xuddi adabiyot ilmida bo'lgani kabi badiiy adabiyot taraqqiyot bosqichlari, adabiy turlar, adabiyot nazariyasi bo'yicha ixtisoslashishi maqsadga muvofiq. Shu asosda xalq og'zaki ijodi, mumtoz adabiyot, yangi davr adabiyoti yoki adabiy turlar bo'yicha monografi k planda keng miqyosli metodik tadqiqotlarni amalga oshirish, so'ngra ularning ilmiy-metodik natijalari, xulosalaridan kelib chiqib muayyan adabiy yo'nalishga mansub asarlarni, adabiy janrlarni o'qitishning ham ilmiy, ham metodik jihatlarini ochib berish darkor. Bu esa o'z navbatida adabiyot darslarini tashkil etish, ularda qo'llanadigan muvofi q pedagogik texnologiyalar, interfaol usullarni ilmiy va amaliy jihatdan to'g'ri belgilashga yo'l ochadi.

Mazkur masalalar adabiyot o'qitish metodikasi fanida hanuzgacha ochilmagan qo'riq bo'lib tadqiqotchisini kutayotganligi bois zamon va makon, ada biy tur va janrlar yoki yo'nalishlari turlicha asarlarni adabiyot o'qituvchilari bir xil yondashuv bilan yoki har xil bo'lsa-da, noto'g'ri yondashuv bilan o'qitmoqdalar. Yanayam ajabtovuri, darslarda mavzu mazmuni, mohiyatiga to'g'ri kelish-kelmasligiga qaramay keng urf bo'lgan pedagogik texnologiya va usullarni ko'r-ko'rona qo'llash odat tusiga kirgan. Bu esa ta'lim mazmunining sayozlashuviga, darslarning quruq rasmiyatchilikka aylanishiga sabab bo'lmoqda. Mazmunan sayoz, rasmiyatchilikdan iborat darslar keyinchalik ma'naviyatga daxldor salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Ta'lim shuning uchun ham metodikaning talabgori bo'lishi kerak<sup>12</sup>.

Albatta, mustaqillik yillari bu sohada ham sezilarli siljishlar bo'ldi. Xususan, metodist olim, professor Qozoqboy Yo'ldoshevning ilmiy-pedagogik faoliyat bilan bog'liq yangicha shakl hamda mazmunda tuzilgan dastur va yaratilgan darsliklari ko'pchilikning diqqatini tortdi. Metodika ana shu tajribalarni umumlashtirib, tanqidiy yondashishi, yutuqlaridan istifoda etishi lozim. Masalan, Q.Yo'ldoshevning dars materiallarini sinflar kesi mida ruknlarga ajratib o'rgangan. 2000-yillardan keyin bu ko'pchilikka ma'qul tajriba sifatida dastur va darsliklar yaratishda qo'llanib kelinmoqda. Mazkur amaliyotga munosabat bildirish, yutuq va kamchiliklarini baho lash metodika fanining zimmasidagi vazifalaridan biridir.

Darsliklar yaratishning ilmiy-metodik tamoyillarini ishlab chiqish hali qo'l urilmagan metodik tadqiqotlarning dolzarb mavzusi sanaladi. Ma'lumki, darslik tuzilishi jihatdan biografik xarakterdagi maqolalar, berilgan asarlar talqini va tahliliga oid maqolalar, badiiy asarlar matni, suratlar (yoki chizmalar), savol va topshiriqlar, nazariy ma'lumot kabi qismlardan iborat. Bu qismlar darsliklarda qanday, qay shakl va hajmda, qayerda berilishi borasida ham

---

<sup>12</sup> Qodirov B. Mumtoz adabiyot: o'qitish muammolari va yechimlar. T.: 2009. 57-bet.

metodikamizda ishlangan ilmiy yo‘riqlar mavjud emas, ular to‘laligicha darslik muallifl arining ixtiyoriga havola qilingan. Biografik ma’lumotlar va adiblarning surati avvalda berilishi hamma darsliklarda bir xil, lekin asar mazmuniga tegishli suratlar 5- va 6-sinf darsliklarining ayrim o‘rinlaridagina uchraydi, qolganlarida yo‘q. Savol va topshiriqlarning berilishida ham izchillik, yagona bir yondashuv yo‘q, ular ba’zan materialning katta yoki kichikligidan qat’i nazar, muayyan mavzuning oxirida bitta qilib umumiy berilsa, ba’zan muallifning hayoti va ijodi uchun alohida, badiiy matn uchun alohida qilib berilgan. 5-sinfda ba’zi o‘rinlarda hatto nazariy ma’lumot uchun maxsus savol va topshiriqlar berilgan holda boshqalarida buni ko‘rmaymiz. 6-sinfda bir adibning nechta asari (yoki uning qismlari) berilishidan qat’i nazar, hammasiga umumiy bitta topshiriq berilgan bo‘lsa, 8- va 9-sinfl arda har bir she’rga, 9-sinfda hatto roman va dostonlardan olingan parchalar dasturda necha soat ajratilganligiga qarab qismlarga ajratilib, har bir qism uchun alohida savol va topshiriqlar havola qilingan. Shuningdek, 5- va 6-sinflarda o‘quvchilarni o‘rganilgan materiallar asosida izlanishga, o‘ylanishga, ijodiy yondashishga chorlaydigan konseptual savollardan ko‘ra darslikdagi ma’lumotlarnigina qayta so‘zlab berishga undaydigan faktologik savollar yetakchilik qiladi. Metodik izlanishlar tanlangan asarlarning adabiy turi, janri, mavzusi, badiiyati hamda g‘oyaviy jihatlaridan kelib chiqib savol tuzish, topshiriqlar berish, muammolar qo‘yish bo‘yicha ham tavsiyalar tizimini yarata olsa edi, darsliklarning foydalilik koeffi tsienti bir necha bor oshgan bo‘lur edi.

Nazariy ma’lumotlar berilishida ham ilmiy asoslangan yondashuvning yo‘qligi ko‘rinib turadi. Nazariy ma’lumotlar o‘quvchida muayyan darajadagi intellektual tayyorgarlikni shakllantirish asnosida ham miqdor, ham hajmga ko‘ra tadrijiy ravishda berib borilishi ke rak. Amaldagi dastur va u asosda yaratilgan darsliklarda ushbu tamoyil buzilgan. 5-sinf o‘quvchilariga yuqori sinfl arda ham og‘ir keladigan she’r, she’riy vaznlar, janrlar to‘g‘risida nazariy ma’lumotlar kiritilgan. Miqdor jihatdan ham nomutanosiblik bor: 6-sinfda ikkitagina nazariy ma’lumot berilgani holda endigina boshlang‘ich sinfdan o‘tgan

5-sinfl arda ularning soni to‘qqizta. Shuningdek, nazariy ma’lumotlarning har doim ham ular taalluqli bo‘lgan badiiy asarlardan keyin berilishi to‘g‘rimi yoki qaysidir asarlardan oldin berilishi ham kerakmi – bu kabi savollarga amaliyotchi o‘qituvchilar metodikadan javob kutadi. Yana bir muammo shundaki, 2006-yildan buyon qayta ishlanib, nashr qilinayotgan darsliklar uchun yozilgan metodik qo‘llanmalar ayrim sabablarga ko‘ra chop etilmayapti. Ungacha har bir sinf Adabiyot darsliklari uchun alohida metodik qo‘llanmalar yozilgan edi. Biz metodik qo‘llanmalar borasidagi fikrlarimizni “Mumtoz adabiyot: o‘qitish muammolari va yechimlar” nomli monografiyamizda hamda metodik jurnal, ilmiy-uslubiy maqolalar to‘plamlarida batafsil bayon etganmiz. Ulardagi asosiy mag‘iz shuki, ayrim qo‘llanmalarda hammaga ma’lum faktik ma’lumotlar, umumiy tafsilotlar bayoni yetakchilik qiladi. O‘qituvchiga asqatadigan metodik tavsiyalar juda kam, borlari ham amaliyotga yoki o‘quvchilarning yosh xususiyatiga to‘g‘ri kelmaydi. Sababi ularni metodist bo‘lmagan nazariyotchi olimlar yozgan.

Ko‘rinadiki, bu muammoning yechimi ham shu: metodik qo‘llanmalarni metodistlar yozishi kerak. Lekin jamiyat oldin o‘sha metodist olimga ega bo‘lishi lozim. Adabiyot o‘qitishdagi muammolarning subyektiv sabablaridan biri adabiyot o‘qituvchisi shaxsi, kasbiy mahorati, kompetensiyasi bilan bog‘liq. Muallimlar kasbiy tayyorgarligining pastligi adabiyot namunalarini o‘rgatishdagi oqsashlarning asosini tashkil qiladi, desak, xato bo‘lmaydi. O‘tgan asrda adabiyot o‘qitish ilmi rivojiga ulkan hissa qo‘shgan rus metodist olimlari V.A. Kan-Kalik, V.I.Xazanning “Maktabda adabiyot o‘qitishning psixologik-pedagogik asoslari” nomli risolasida adabiyot o‘qituvchisining kasbiy tayyorgarligiga alohida urg‘u beriladi va adabiy-ta’limiy mehnatning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, badiiy-pedagogik vazifalarning badiiy-tadqiqiy, badiiy-konstruktiv, badiiy-tashkiliy va badiiy-kommunikativ tarzidagi tasnifi keltiriladi va ularning har biriga alohida to‘xtalib o‘tiladi<sup>13</sup>.

---

<sup>13</sup> Qarang: Qodirov B. Muammolar qulfining kaliti. Til va adabiyot ta’limi, 2017, 10-son.

Adabiyot darslaridan ko‘zlangan maqsad badiiy matn ustida ishlash bilan yuzaga chiqar ekan, mana shu sanalgan to‘rt vazifa har bir mashg‘ulotda ado etilishi shart qilib qo‘yiladi. Adabiyot o‘qituvchilarimizga bu vazifalar haqida na talabalik davrida, na malaka oshirish kurslarida tushuncha berilgan. Ular haqida tizimli tushunchasi bo‘lmagan o‘qituvchining darslari ongli emas, stixiyali tarzda kechadi. Demak, endilikda oliy ta’limda, malaka oshirish kurslarida yurtimiz, chet ellardagi adabiyot o‘qitish metodikasi yuzasidan mavjud ilmiy, amaliy natijalar, xulosa va qarashlarni bo‘lg‘usi pedagoglar, amaliyotchi o‘qituvchilarga yetkazishimiz shart.

Adabiyot o‘qitishdagi eng og‘riqli nuqta muallimlar nazariy tayyorgarligi, ularda tahlil ko‘nikma va malakalarining yetarli emasligidir. Adabiyot o‘qituvchilarining darslikka kiritilgan adabiyot namunalarini tushunishga qiynalishlarining guvohi bo‘lamiz. Idrok etilmagan asarni o‘quvchiga tushuntirish to‘g‘risida gapirishning o‘zi noj oiz. Respublikaning turli tuman va shaharlarida o‘tkazilgan suhbat hamda kuzatishlardan ma’lum bo‘ldiki, aksariyat o‘qituvchilar darsliklarda berilgan asar sharh larini o‘qib yoki aytib beradilar, o‘quvchilardan ham aynan shularni takrorlashni talab qiladilar. O‘qituvchining o‘zi fikr boqimandasi, passiv iste’molchi maqomida bo‘lib, o‘quvchidan ham shuni talab qilar ekan, adabiyot darslarining saviyasi past bo‘lishi tayin. Qanchalik achchiq bo‘lmasin, ko‘pchilik adabiyot darslari shu ahvolda ekanligini tan olishga to‘g‘ri keladi. Ahvol shunday ekan, nima qilish kerak? Bizningcha, eng avvalo, oliy ta’lim bitiruvchilari va ustozlarining mas’uliyatini oshirish uchun qat’iyroq tadbirlarni o‘ylab ko‘rish zarur. Shuningdek, respublika miqyosida Til va adabiyot o‘qituvchilari jamiyatini tuzish, viloyat, tuman va shaharlarda uning bo‘linmalarini tashkil qilish maqsadga muvofi q bo‘ladi. Ularga eng bilimdon, tajribali, soha fi doyisi bo‘lgan vijdonli pedagoglar rahbarlik qiladilar va joylarda yetakchi hamkasblaridan iborat kengashlarni tuzadilar. Jamiyat joylardagi bo‘linmalari va ular qoshida tuzilgan kengashlar orqali respublikada ona (o‘zbek) tili va



adabiyoti ta'limining sifat va samaradorligini oshirish qamrovidagi keng ko'lamli ishlar qatorida oliy ta'lim va qayta tayyorlov kurslarini bitirib, amaliyotga kirib kelayotgan yosh filolog mutaxassislarni ishga qabul qilishda ishtirok etadi. Ishga talabgorlar bilan suhbat o'tkazib, ular hech bo'lmasa maktab til va adabiyot ta'limi dasturi materiallari nuqtayi nazaridan yaroqli deb topilsa, ishga qabul qilinishi kerak. Suhbatdan o'tolmaganlar ro'yxati ular tamomlagan oliy o'quv yurti ko'rsatilgan holda tegishli vazirliklarga yuboriladi. Shuningdek, malaka oshirish kurslari samaradorligini nazorat qilish xususida ham o'ylab ko'rish kerak. Shu o'rinda biz keyingi uch yilda amaliyotda adabiyot o'qituvchilari bilan ishlash va metodikani rivojlantirish yuzasidan sinovdan o'tkazib, yuqori samara bergan bir tajribani taklif etamiz. Hamma sohalarda bo'lgani kabi malaka oshirish tizimida ham muqobil xususiy malaka oshirish shakliga ruxsat berilishi lozim. Amaliy faoliyatimizda ko'rildiki, agar o'qituvchilar o'zini tom ma'noda qoniqtiradigan darajada ilmiy va metodik yordam oladigan bo'lsa, bajonidil o'z hisobidan o'qiydi<sup>14</sup>.

Demak, o'zaro raqobatdosh bo'lgan malaka oshirish shakllarini faoliyat ko'rsatishiga yo'l berish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shuningdek, pedagoglar hozirgidek ular yashayotgan hududdagi malaka oshirish kurslariga majburiy tarzda emas, balki o'zlari istagan joyga yoki muassasaga (davlat yoki xususiy) malaka oshirgani borishlari mumkin bo'lsin. Shunda pedagoglar malakasini oshirish ishiga davogar (davlat yoki xususiy) muassasalar oldida faoliyat ko'rsatishlari uchun hayot va mamot masalasi – o'qituvchini o'zlariga jalb qilish muammosi ko'ndalang bo'ladi. O'qituvchini jalb qilolmagan, uning ishonchini qozonmagan muassasa faoliyat ko'rsata olmaydi. Bu sohada faoliyat ko'rsatish uchun esa yuqori metodik bilim, tajriba va malakaga ega bo'lish, doimiy izlanish, tajribalar o'tkazish, yangi natijalarga ega bo'lish, o'qituvchini kutib kabinetlarda o'tirish emas, balki uning muammosini o'rganish va hal qilish uchun bilim dargohlariga borishga to'g'ri keladi. Ayni paytda ana shu raqobat negizida ta'lim amaliyotida etilgan

---

<sup>14</sup> Qarang: Qodirov B. Muammolar qulfining kaliti. Til va adabiyot ta'limi, 2017, 10-son.

haqiqiy meto distlarga ega bo‘lamiz. Bizningcha, hozirgi belgilangan tartibga ko‘ra har 3 yoki 5 yilda majburiy malaka oshirishga o‘qituvchini jo‘natish to‘g‘ri emas. Malaka oshirishi kerak yoki kerakmasligini o‘qituv chining o‘zi hal qilsin. U doimo izlanishda bo‘lib, o‘z ustida ishlab, soha yangiliklarini o‘zlashtirib borgan bo‘lsa, qo‘yilgan asosiy talablarga javob bersa, nima uchun uni majburlab malaka oshirishga yuborish kerak? Malaka oshirish o‘qituvchi uchun majburiyat emas, ehtiyoj bo‘lishi lozim.

Ko‘rinadiki, adabiyot o‘qitish bilan bog‘liq qator muammolar yechimi bevosita yoki bilvosita metodika faniga, uning rivojiga bog‘liq. Shu bois mazkur soha rivoji uchun mamlakat miqyosida alohida e‘tibor, hukumat darajasida qarorlar qabul qilinishi butun ta’limning yangi bosqichga ko‘tarilishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

## **II BOB. Adabiyot o‘qitishda kompetentsiyaviy yondashuv va o‘quvchilar yosh xususiyatlarini hisobga olish**

### **2.1. Adabiyot o‘qitishda kompetentsiyaviy yondashuv**

Bugungi kunda o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini amalda qo'llay olish layoqatlarini shakllantirish ta'limning eng dolzarb masalalari sifatida e'tirof etilmoqda. Bu borada kompetentsiyaviy yondashuvga asoslangan DTS va o'quv dasturlari tajriba-sinovdan o'tkazildi. Kompetentsiyaviy yondashuvga asoslangan DTS maqsadi shaxsga yo'naltirilgan bo'lib, o'quvchilarni egallangan bilim, ko'nikma va malakalardan hayotda uchrashi mumkin bo'lgan turli vaziyatlarda foydalanishga tayyorlashi bilan ahamiyatlidir.

Tavsiya etilayotgan yangi mazmundagi DTSga asosan ta'lim umumta'lim fanlarini o'rganishning boshlang'ich darajasi – A1 dan to umumta'lim fanlarini o'rganishning ixtisoslashtirilgan darajasi – B1+ gacha bo'lgan bosqichlarda amalga oshiriladi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarda kommunikativ, axborot bilan ishlash, o'z-o'zini rivojlantirish, ijtimoiy faol fuqarolik, milliy va umummadaniy hamda matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan foydalanish kompetensiyalari shakllantirib boriladi.

O'qitish jarayoniga xalqaro ta'lim talablariga mos bola shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim metodologiyasi joriy etilib, fanlar yo'nalishida o'qitish muammolariga bag'ishlangan forumlar muntazam tashkil etib boriladi.

Yuqori sinflar uchun chet tili darslik-majmualari takomillashtiriladi, pedagoglarning dars jarayonida elektron qo'llanma va darsliklar, virtual laboratoriya ishlari, ta'limga oid o'yinlar hamda boshqa qo'shimcha elektron ta'lim resurslaridan samarali foydalanishi yo'lga qo'yiladi.

Ushbu ishlarni amalga oshirish uchun umumta'lim maktablari o'qituvchilari, xususan, aniq va tabiiy fanlar o'qituvchilarining uzluksiz ravishda kasbiy mahoratini oshirib borish tizimi yo'lga qo'yiladi.

To'rtinchidan, yetuk, mahoratli o'qituvchilarni tayyorlash, ularning malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimini isloh qilish, kadrlar salohiyatini yuksaltirish choralari ko'riladi.

Buning uchun xalq ta'limi tizimidagi rahbar va pedagog kadrlar malakasini oshirish mazmuni va sifatiga qo'yiladigan davlat talablari takomillashtiriladi.

O'quv reja va dasturlar mazmuni qayta ko'rib chiqilib, zamon talabiga moslashtiriladi. Pedagog kadrlar malakasini oshirish tizimidagi professor-o'qituvchilar sifat tarkibi yosh, ilmiy salohiyatga ega kadrlar bilan to'ldiriladi. Pedagogika institutlarida ta'lim yo'nalishlari bo'yicha ixtisoslik fanlarini o'qitish metodikasining yangi o'quv dasturlari yaratiladi.

Beshinchidan, maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish muhim strategik vazifalardandir.

“Kompetentlik (lotincha “com’etens” – “layoqatli”, “qobiliyatli”) deganda shaxs bilim, ko‘nikma va tajribalarining ijtimoiy-professional mavqei va o‘ziga tegishli vazifalarni bajarish, muammolarni hal qilishga qodirligi hamda haqiqiy moslik darajasi”<sup>15</sup> tushunilishi bejiz emas.

“Kompetentsiya” va “kompetentlik” muammolari Edingburg universitetining professori Dj.Raven tomonidan maxsus o‘rganilgan tushuncha sifatida aniq predmet atrofidagi harakatni samarali boshqarish uchun zarur hisoblangan va tor doiradagi bilimlarni o‘zida mujassam etuvchi malaka va tafakkur tarzi, muayyan xatti-harakatlarga jiddiy yondashish qobiliyati deya ta’riflanadi.

D.A.Maxotina, Yu.V.Florova, V.V.Ryabova, B.A.Nazarova, S.Yu.Maxmudov kabi yetakchi pedagog olimlar izlanishlarida mazkur tushunchalarning mazmun-mohiyati va xususiyatlari haqida atroflicha fikr-mulohaza yuritiladi. Ularning e’tirof etishlaricha va kuzatishlarimizga qaraganda, “kompetentsiya” shaxs tomonidan mukammal o‘zlashtirgan predmet sanaladi va u tanlagan sohada faoliyat yuritish uchun tayyorgarlik mezoni vazifasini bajarsa, “kompetentlik” undan farqli ravishda shaxsning yo‘naltirilgan tasnifi, bitiruvchining ma’lum sohada faoliyat yuritishi uchun shakllantirilgan ko‘nikmani anglatadi.

O‘quvchilarda muayyan sifatlarni kamol toptirish uchun o‘qituvchining o‘zidan ham umumkasbiy kompetentsiyalarga ega bo‘lish talab etiladi. Olimlar fan o‘qituvchilari maxsus yo‘nalishdagi, ijtimoiy, shaxsiy va individual

---

<sup>15</sup> Асадов Й.М. Таълимда компетенциявий ёндашув. //Maktab va hayot. –Т.: 2014, №1. –8-бет.

kompetentlikni to'liq o'zlashtirgan holdagina kompetentli pedagog sanalishini qayd etadilar.

So'nggi yillarda kasbiy kompetentlik muammosi psixolog olimlar Ye.A.Klimov, A.K.Markova, L.M.Mitina, Yu.p.povrenkov hamda N.S.pryajnikovalar tomonidan psixologiya fanining predmeti sifatida tadqiq qilinganini kuzatish mumkin.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda kompetentlik muammolari yoritilgan qator tadqiqot ishlari amalga oshirildi. Xususan, bevosita muayyan soha mutaxassisiga xos bunday jihatlarni professor N.A.Muslimov "shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega kasbiy faoliyatning amalga oshirilishi uchun zarur bo'lgan ko'nikma va malakalarning egallanishi hamda ularni kasbiy faoliyatda qo'llanilishi bilan ifodalanishi"<sup>16</sup> tarzida baholaydi.

Manbalarda o'quvchilarning shaxs sifatida shakllanishi va jamiyatda o'zining munosib o'rnini topishida kommunikativ, axborot bilan ishlash, o'qish-o'rganish, mustahkam e'tiqodga ega bo'lish, ijtimoiy mehnat, umummadaniy hamda o'z-o'zini shaxsiy rivojlantirish kabi tayanch kompetentsiyalar<sup>17</sup> asosiy ko'rsatkich hisoblanishi ta'kidlanadi.

Har bir o'quv fani mazmunidan kelib chiquvchi kompetentsiyalar belgilangan bo'lib, adabiy ta'limda badiiy asarni o'qish, tushunish, tushuntirish, tahlil qilish kabi xususiy kompetentsiyalar qatori umumiy (tayanch) kompetentlikning *estetik, kommunikativ, kreativlik, nutqiy, lingvistik, sotsiolingvistik, pragmatik, mustaqil va ijodiy fikrlash* kabi yetakchi kompetentsiyalari integratsiyalashgan holda amal qiladi.

***Estetik kompetentsiya*** maqsadi o'quvchilarda badiiy so'z qudrati hatto o'lik tanaga jon bag'ishlashi... (Alisher Navoiy), asar jozibasi va nafosatini, go'zal tuyg'ular, eng nozik sezimlarni qalban his qila oladigan shaxslarni kamol toptirishga qaratilgan.

---

<sup>16</sup> Muslimov N.A. Bўлажак касб таълими ўқитувчисини касбий шакллантириш. –Т.: Фан, 2004. –128-бет.

<sup>17</sup> Турдиев Н. Таянч компетенцияларни шакллантириш. //Umumta'lim fanlari metodikasi. – Т.: 2014, №3. –2-3-бетлар.

Ta'lim oluvchilarning o'zgaralar bilan munosabatga kirishish, muomala madaniyatini egallash, ular mehrini qozonishga intilish sifatlarini shakllantirish *kommunikativ kompetentsiyaga* xos xususiyat hisoblanadi.

*Kreativlik kompetentsiyasi* o'quvchilarda o'z ishiga ijodiy yondashish, muammoli vaziyatlarga yechim topa olish, mustaqil qarorlar qabul qilish malakalarini rivojlantirishni ko'zda tutadi.

Bugungi iqtisodiyot sharoitining har qanday yo'nalishdagi mehnat bozorida o'ziga munosib o'rinni egallash uchun har bir mutaxassisdan raqobatbardoshlik talab qilinadi. Bu o'z navbatida barcha sohalar xodimlaridan kasbiy kompetentlikni taqozo etsa, adabiyot o'qituvchisidan mahnaviy mukammallik ham talab qilinadi. Adabiyot o'qituvchisining o'quvchilar oldida obro'-e'tibori baland bo'lishi uchun har ikki xususiyat uyg'unlashtirilishi maqsadga muvofiqdir. Chunki adabiyot o'qituvchisi inson ko'ngli bilan ishlaydi. Adabiyot darslari ko'ngil tarbiyalash darslaridir. Faqat bilim bilan qalbga kirib bo'lmaydi. Shuningdek, hurmat, ehtirol, obro' singari tushunchalar borki, ularni talab qilib, so'rab yoki sotib olib bo'lmaydi. Ularni shaxsiy fazilatlar, mahnaviy etuklik va bilimlilik bilan qozonish kerak bo'ladi.

Adabiyot o'qituvchisining kompetentligini tahminlash mazkur qo'llanmaning mazmuni-mohiyatidan kelib chiqadigan natijadir. Kompetentsiya (lotincha com'etens – munosib, mos, kerakli, layoqatli, biladigan mahnavilarini anglatadi) – shaxs tomonidan hayotning muayyan tarmoqlarida samarali faoliyat yuritish uchun zarur bo'ladigan bilim, ko'nikma, malaka va tajriba mavjudligini anglatadigan tushuncha.

Kompetentlik – kompetentsiyaga egalik. Odamning muayyan sohalarda samarali faoliyat ko'rsatishi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va tajribaga egaligi bilan uning shaxslik sifatleri o'rtasidagi uyg'unlikni anglatadi<sup>18</sup>.

Kompetentlik shaxsning muayyan soha bo'yicha ayni amaliy imkoniyatlari va malakaviy darajasida namoyon bo'ladi. Har qanday mutaxassisda

---

<sup>18</sup> <https://ru.wikipedia.org/wiki>. Википедия. Свободная энциклопедия.

uyg‘otiladigan va mahsuldor imkoniyat mavjud bo‘ladi. Kompetentlilik ana shu uyg‘otiladigan imkoniyatning mahsuldor imkoniyatga aylantirilishini ko‘zda tutadi.

“Kompetentlilik” atamasi ta’lim sohasiga psixologik izlanishlar natijasida kirib kelgan. Bu tushuncha ruhshunoslar nazdida har qanday mutaxassisning noanhanaviy vaziyatlar, kutilmagan holatlarda vaziyatga mos muloqot yo‘llarini topa bilishi, raqiblar bilan o‘zaro munosabatlarda yangi usullarni qo‘llay olishi, murakkab topshiriqlarni bajarishda zarur mahlumotlardan bilgichlik bilan foydalanishi, uzluksiz ravishda o‘z ustida ishlashi, o‘z bilim, ko‘nikma va malakalarini izchil ravishda takomillashtirib borishini anglatadi.

Kasbiy kompetentlilik esa – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi hamda ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olinishini anglatadi. Kasbiy kompetentlilik mutaxassis tomonidan faqat alohida bilim, ko‘nikma, malaka hamda shaxsiy sifatlarning egallanishigina emas, balki o‘ziga zarur yo‘nalishlar bo‘yicha integrativ bilimlar hamda harakatlarning o‘zlashtirilishini ham qamrab oladi. Spuningdek, kompetentsiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o‘rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi mahlumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o‘z faoliyatida qo‘llay bilishni ham taqozo etadi.

Kasbiy kompetentlilikning darajasi quyidagi holatlarda yaqqol namoyon bo‘ladi: murakkab vaziyatlar vujudga kelganda; favqulodda vazifalarni bajarishda; bir-biriga zid mahlumotlardan o‘rni bilan foydalanishda.

Kasbiy kompetentsiyaga ega mutaxassis: o‘z bilimlarini izchil boyitib boradi; yangi axborotlarni o‘zlashtiradi; davr talablarini chuqur anglaydi; yangi bilimlarni izlab topadi; ularni qayta ishlaydi va o‘z amaliy faoliyatida samarali qo‘llaydi.

Keyingi paytlarda jahon ta’lim amaliyotida o‘quvchilarni kompetentli qilib tayyorlash asosiy vazifalardan biriga aylandi. Negaki, kompetentlilik o‘zida:

ta'limning intellektual va amaliy jihatlarini uyg'unlashtiradi; o'qitish kechimida ta'lim mazmunini o'zlashtirishning standart bo'yicha qanday natijaga olib kelishini bildiruvchi ko'rsatkichlarni aks ettiradi; shaxs faoliyati va madaniyatining bir yoki bir-biriga yaqin qator sohalarni qanchalik umumlashtirganligini namoyish etadi.

Bulardan tashqari, dunyoning globallashuvi mutaxassislarining endi birgina mamlakat hududida emas, balki dunyoning istalgan mamlakatida yashab, faoliyat ko'rsatishi, raqobatbardosh bo'lishi uchun har jihatdan kompetentli bo'lishini taqozo etmoqda.

Shaxsning kompetentligi odamning kundalik tirikchilik o'tkazish, kasbi bo'yicha faoliyat ko'rsatish yoxud ijtimoiy turmushda o'z o'rniga ega bo'lishga doir hayotiy muammolarni echishga yaroqli bilim, ko'nikma, malaka va tajribalarni egallaganlik holatiga ko'ra muayyan tarkibiy qismlardan iborat bo'ladi. Kompetentlik tushunchasi shaxsning mustaqil bilish faoliyatidagi, ijtimoiy-fuqarolik sohasidagi, ijtimoiy-mehnat tarmog'idagi, maishiy turmushdagi va madaniy hamda dam olish sohasidagi kompetentligi singari tarmoqlarni o'z ichiga oladi:

mustaqil bilish faoliyati kompetentligi(kognitiv tarmoq). Unda mutaxassisning turli yo'llar bilan, jumladan, ta'lim muassasalaridan tashqari manbalardan bilim olish malakasini egallashi;

ijtimoiy-fuqarolik kompetentligi(ijtimoiy tarmoq). Shaxsning fuqarolik, saylovchilik, istehmolchilik va boshqa bir qator vazifalarni bajarishga qaratilgan faoliyati;

ijtimoiy-mehnat kompetentligi(mehnat tarmog'i). Odamning o'z kasbiga doir mehnat bozori ma'lumotlaridan xabardor bo'lishi, undagi vaziyatni tahlil qila olishi, o'zining professional imkoniyatlarini to'g'ri baholay bilishi, o'zaro munosabatlardagi axloqiy qoidalarni hisobga olishi va amal qilishi;




maishiy kompetentlilik (oila tarmog‘i). SHaxsning o‘zi va oila ahzolarining salomatligi, oiladagi turmush tarzi, burchlari va vazifalari hamda boshqa oilaviy masalalarni bilishi;

madaniy va dam olish kompetentliliigi (madaniy tarmoq). Odamning bo‘sh vaqtdan to‘g‘ri foydalanish, o‘z shaxsini madaniy-mahnaviy jihatdan rivojlantirishga doir faoliyati nazarda tutiladi.

Bugungi o‘qitish tizimi o‘z ishini har bir o‘quvchining maktab davridayoq yuqorida sanab o‘tilgan kompetentlilik xususiyatlariga ega bo‘lishini ko‘zda tutgan holda faoliyat ko‘rsatishini tashkil etishi maqsadga muvofiqdir.

Shaxs tomonidan kompetentlilikning muayyan darajasiga erishish davomida shakllanadigan bilim va amaliy tajribalar orasida mustaqil va tanqidiy tafakkurga egalik, mustaqil ishlay bilish, o‘z faoliyatini uyushtira olish, o‘z-o‘zini nazorat qila bilish, odamlar bilan ishlay olish, erishiladigan natijalarni oldindan ko‘ra bilish, qabul qilgan qarorining oqibatlarini chamalay olish, narsa-hodisalar o‘rtasidagi sabab-oqibat munosabatlarini ilg‘ay bilish, muammoni topish, uning echimini shakllantirish va hal etish singari jihatlar alohida ahamiyat kasb etadi.





Bevosita adabiyot o‘qituvchisining kompetentligi dasturda o‘rganish uchun taqdim etilgan badiiy asarlardagi o‘quvchilar ruhiyatining sog‘lomlashuviga ijobiy tahsir ko‘rsata oladigan, ularni mahnaviy kamolot sari etaklaydigan, tuyg‘ularini noziklashtiradigan jihatlarni ilg‘ay bilishi, ulardan dars jarayonida har bir o‘quvchiga mos ravishda foydalana olishini nazarda tutadi.

## 2.2. Adabiyot o‘qitishda o‘quvchilar yosh xususiyatlarini hisobga olish

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish buyicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risidagi” 2017 yil 13 sentyabrdagi qarori ayni shu sohada, millat ma’naviyatini tarbiyalash uchun o‘z vaqtida tashlangan qadam bo‘ldi.

Ta’lim bosqichlarida har bir fanni o‘qitishda o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish ta’lim-tarbiya samaradorligini ta’minlovchi omillardan biri sanaladi. Muqaddas hadislardan birida: «Har kishining aqliga qarab murojaat qiling», deyilgan. Haqiqatan ham ta’limda tarbiyalanuvchining hayotiy tajribasi, ma’lumotlarni o‘zlashtirish imkoniyatlari ko‘p hollarda uning yoshi bilan bog‘liq jihatlarga borib taqaladi. Faoliyatini endi boshlagan yosh o‘qituvchilar ta’lim berishning aynan shu tomonini – tarbiyalanuvchilar

yoshini nazardan soqit qilishlari natijasida darslari ko'ngildagidek chiqmay qolish hollari ko'p kuzatiladi. Bizningcha, mazkur muammoning uch jihati mavjud:

1. O'quvchilar yosh xususiyatlariga ko'ra adabiy materialni tanlash va ta'lim bosqichlarida asar tahlilining o'ziga xos jihatlari. Ma'lumki, xalq ta'limi tizimida adabiy ta'limning boshlang'ich (1–4-sinfl ar), o'rta (5–7-sinfl ar), yuqori (8–11-sinfl ar), o'rta maxsus ta'lim (akademik litsey va kasb-hunar kollejlari) bosqichlari mavjud. Boshlang'ich sinfda adabiy ta'limning boshlang'ich uzvi bo'lmish «O'qish kitobi» o'rganiladi. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida adabiy-estetik tarbiya bosh maqsad sifatida qo'yilmaydi. Shu bois tizimli tarzda adabiy materiallar ham berilmaydi. Kitobda adabiy matnlar bilan bir qatorda tarix, geografiya, odobnomaga oid matnlar ham berilgan. Chunki bu bosqichda o'quvchilarning: bexato, ravon, ifodali o'qishi; o'qiganlarini tushunishi, tushunganlarini tushuntira olishi; ular asosida og'zaki nutqni o'stirishi; yozma nutq va savodxonlikni rivojlantirishi asosiy maqsad hisoblanadi. Boshlang'ich sinflarda o'rganilgan materiallarni estetik yoki to'la ravishda didaktik tahlil qilish vazifa sifatida belgilanmaydi, balki o'qilgan matnlardan didaktik xulosalar chiqarish muhim sanaladi. O'quvchilarning saviyasi, tayyorgarlik darajasiga ko'ra 3-4-sinflarda matnlarning didaktik tahliliga keng o'rin berish joiz, shuningdek, bunga estetik tahlil unsurlarini ham kiritish mumkin. Bu sinflarda she'r qofiyasini topish, qofiyaning she'r musiqiyiligini ta'minlashdagi ahamiyatiga e'tibor erish, so'z o'yinlariga diqqatni qaratishni estetik tahlil chizgilari deyish mumkin. O'rta sinflarda boshlang'ich sinflarda shakllana boshlagan ko'nikmalar rivojlantiriladi, malaka darajasiga ko'tariladi. Bu bosqichda o'rganilayotgan asarlarni didaktik tahlil qilish ustuvor vazifa bo'lib, estetik tahlil hozircha oldingi o'ringa chiqarilmaydi (ya'ni asosiy vazifa sifatida belgilanmaydi). Lekin estetik tahlil e'tibordan soqit ham qilinmaydi. Diqqat qilinsa, dasturga ko'ra 5-sinfda xalq og'zaki ijodi namunalaridan, dastavval, maqol, topishmoq va ertaklar darslikka kiritilgan. Bu o'quvchilar yosh xususiyatiga

ko'ra mantiqlidir. Chunki kechagina boshlang'ich sinfdan chiqqan bolalarni bu adabiy materiallar asosida o'qitish oson va qulay, ko'zlangan maqsad va vazifalarga muvofiq keladi. Boshlang'ich sinfl ardagidan farqli o'laroq matnlar to'liq didaktik tahlilga tortiladi. Ezgu ishlar, oliyjanob ertak qahramonlari dan ibrat olish, havas qilish, yaxshilarning yaxshiligi, yomonlarning yomonligi asosi va omillarini aniqlash matni o'rganishda yetakchilik qiladi, qahramonlarning xarakterli tomonlari, xatti-harakati, gap-so'zlari tahlilga tortiladi. Ertaklardan keyin rivoyat, afsonalar, so'ng yozuvchilar hikoyalarini o'rganish ulanib ketadi. Bola bu yoshda kunma-kun, haftama-hafta, oyma-oy jismoniy, fiziologik, aqliy jihatdan rivojlanib boradi. Demak, o'qituvchining vazifasi ana shu o'sishga muvofiq tarzda tanlangan dars materiali asosida o'quvchining ongini o'stirish va ma'naviy taraqqiyotini ta'minlashdir. Bunda asar tahliliga qo'yilayotgan talab va shaklni ham takomillashtirib borish zarurati oldingi o'ringa chiqadi. Tahlilda qiyoslash, solishtirish, zidlash kabi usullarni keng qo'llash maqsadga muvofiq. Avvalo, bolalar ko'rgan multfilm, kinofilmlar qahramonlariga, o'rganilgan asar obrazlari va voqeligiga qiyoslash uchun murojaat qilinsa, asta-sekin hayotdagi odamlar, voqea-hodisalar, o'qilgan boshqa asar qahramonlari, sujeti solishtirish obyekti bo'lib xizmat qiladi. Bu keyingi sinfl arda ko'lamlil realistik hikoya, qissa va romanlardan parchalarni to'laqonli o'rganish uchun zamin hozirlaydi. Ko'rinadiki, tahlil qilish «yuk»i 5-sinfdan boshlab mavzudan mavzuga murakkablashib boradi va bu o'quvchilarning tahlil qilish ko'nikma, malakalari rivojlanishiga asos bo'ladi. Shuningdek, 5-sinfda o'tiladigan maqol va topishmoqlardagi alliteratsiya, ularning she'riy shakldagi namunalarning qofi ya, radifi, xalq qo'shiqlaridagi boshqa badiiyat unsurlari navbatdagi chorakda o'rganiladigan badiiy she'rlarni o'rganish uchun zamin hozirlaydi. Bu keyingi sinfl arda beriladigan nazm namunalari o'zlashtirishga ham o'quvchilarni tayyorlaydi. Asarlarni o'rganishda didaktik va estetik tahlil nisbati qisqarib boradi. 7-sinfga kelib adabiy materialni didaktik va estetik tahlil qilish teng proporsiyaga keladi. She'riy asarlarda esa estetik tahlil yetakchilik qilishi mumkin.

7-sinfda xalq ogʻzaki ijodining doston janri namunasi berilgan. Uni oʻrganishda oʻquvchilarning epik janrlar va sheʼriy asarlarni tahlil qilish tajribasiga tayaniladi. Bu sinf yoshidagi oʻspirinlar dunyoqarashi, bilimi, saviyasi va hayotiy tajribalari bilan dostonda tasvirlangan epik koʻlamni, oʻz xalqiga xos boʻlgan axloqiy-falsafiy qarashlarni yaxshi idrok eta oladi. Yuqori sinflarda asarlarni oʻrganishda estetik tahlil ustuvor mavqega koʻtariladi. Oʻquvchilar diqqati asar gʻoyasidagina emas, fikr qanday aytilayotganiga, yaʼni muallifning mahoratiga, asardagi ifoda goʻzalligiga ham alohida qaratiladi.

Oʻrta maxsus taʼlimda asarlarni, asosan, metodologik asosiga koʻra estetik-falsafiy mushohada qilish keng oʻrin tutishi mumkin. Lekin bu bosqich biroz murakkab hisoblanadi, chunki har bir guruhda turli maktablardan kelgan, badiiy-estetik saviyasi, bilimi va tahlil qilish tajribasi turlicha boʻlgan oʻspirinlar yigʻilgan boʻladi. Ayniqsa, kasb-hunar kollejlari jamlangan oʻquvchilarning aksariyati bu borada ancha orqada boʻlishadi. Demak, ular, avvalo, maktab davrida boy berilgan imkoniyatlarni, yaʼni asarlarni didaktik va estetik tahlil qilish koʻnikma hamda malakalarini shakllantirib olishi darkor.

2. Metod va usullarni belgilashda oʻquvchilar yosh xususiyatlarini hisobga olish.

Dars metod, usul va vositalarining oʻquvchilar yoshini hisobga olgan holda qoʻllanishi mashgʻulot samarasini muayyan darajada taʼminlashda muhim ahamiyatga ega. Bu didaktik tadbirlar shakli va mazmuniga koʻra tarbiyalanuvchilar yoshiga nisbatan ogʻir ham, yengil ham boʻlmasligi lozim. Aks holda darslar yoki zerikarli tus oladi, yoki ularni amalga oshirishdagi nomuvofiqlik tufayli koʻzlangan maqsad amalga oshmay qolaveradi. Suhbat, reproduktiv metodlar taʼlimning barcha bosqichlarida oʻquvchilar yosh xususiyatidan qatʼi nazar, doimo qoʻllanib kelingan. Faqat ularga tanlanayotgan mavzu va material, qoʻyilayotgan muammo, albatta, yosh xususiyatiga mos boʻlishi shart.

Ma'ruza, sharhli o'qish hamda produktiv metodlar ko'proq 7–9-sinflarda tavsiya etiladi, lekin u qat'iy qolip yoki majburiy ko'rsatma emas. Metodikada hech qachon qat'iy ko'rsatmalar bo'lmaydi. O'rta sinflardagi metod va usullar yuqori sinflarda, yuqori sinflarga tavsiya etilganlari esa o'rta sinflarda qo'llanishi mumkin. Bu materialning mazmuni, xarakteri va shakliga bog'liq. Yuqorida aytilganidek, tarbiyalanuvchilar yoshiga qarab o'zgacha yondashiladi xolos. 5–6-sinflarda o'quvchi dunyoqarashi, jismoniy va ruhiy holatidan kelib chiqib metodlarning ko'proq o'yin xarakteridagi usullari yaxshi natija berishi amaliyotda kuzatilgan. “Rolli bo'lib o'rganish”, “Tezyurar”, “Poyga”, “Kim chaqqon?”, “Baliq ovi”, “Yelpig'ich”, “Alifboli savollar”, “Charxpalak” kabi usullar bu yoshdagi o'smirlar olamiga yaqin bo'lib, ular asosiga qurilgan dars shakllari qiziqarli bo'lishi tabiiy. Demak, bu xilma-xil shakllar motivatsiya (qiziqish) uyg'otish vazifasini ham o'taydi. 7-sinfda esa birmuncha jiddiyroq, faqat harakatlargagina emas, balki intellektual faoliyatga undaydigan usullar soni ortib borishi lozim. Mazkur sinfda o'yin elementlari ozayib, ular o'rnini yuqori sinflarda ko'p qo'llanadigan usullarning dastlabki shakllari egallay boradi. Yuqori sinflarda va o'rta-maxsus ta'lim bosqichida “Sud darsi”, “Zakovat”, “Aqliy hujum”, “Reportaj”, “6x6x6” kabi usullar ko'p qo'llanadi. Ta'lim bosqichlarida sinf (guruh)ning imkoniyati, salohiyati, eng asosiysi, muallimning mahorati bilan bog'liq ravishda “Aqliy hujum”, “Kichik guruhlarda ishlash”, “Tarmoqlar” kabi usullar faol hisoblanadi. Barcha qayd etilgan usullar muammoli ta'lim tabiatini o'ziga singdirganda yanada ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, ularning barchasida pedagogik hamkorlik tarzida olib borilgan mashg'ulotlar eng yuqori samara berishi kuzatiladi.

3. Savol va topshiriq, uy vazifalarini berishda o'quvchilar yoshiga ko'ra yondashuv.

Savol va topshiriqlar o'quvchi shaxsining ham aqliy, ham ruhiy, ham ma'naviy jihatdan rivojlanishiga turtki beradigan asos sanaladi. Ular, asosan, mualliflarni ijodkor sifatida tanishga, matn ustida ishlash, obrazlar tabiatini o'rganish hamda nazariy ma'lumotlarni mustahkamlashga qaratiladi. 5–6-sinfl

arda matn ustida ishlashga undovchi savol-topshiriqlar bolalarga og‘ir kelmasligi, ularni bezdirib qo‘ymasligi, ayni paytda sodda, javobi darslikda berilgan bo‘lmasligi darkor. Bu sinfl arda izlab topish xarakteridagi savol va topshiriqlarning ko‘p bo‘lishi maqsadga muvofiq. Masalan, “Uch og‘a-ini botirlar” ertagi o‘rganilgach, quyidagi topshiriqlarni berish mumkin: “Qaysi o‘rinda otaning donishmandligi ko‘rinadi?”, “Og‘a-inilarning sezgir va hushyorligi namoyon bo‘lgan lavhalarni toping va sharhlang”, “Ertakdagi vazirlarning qanday odamligi qaysi o‘rinlarda aks etgan?” va hokazo.

7-sinfda savol va topshiriqlar mohiyati chuqurlashadi. Masalan, “Zavqiy ijodiga tegishli asarlar ro‘yxatini tuzing. Asarlarini birlashtirib turgan mavzuga diqqat qiling”, “Shoir yashagan davr voqeligi qay tarzda ifoda etilganligini tushuntiring”, “Shoir she‘rlaridagi yorug‘ kelajakka ishonch tuyg‘ulari aks ettirilgan o‘rinlarni toping, ifodasidagi o‘zgachalikni izohlang”.

9-sinfda esa asarlarga quyi sinfl arda shakllangan tahlillash tajribalari, matn ustida ishlash malakalari, olam va odam to‘g‘risida teranlashgan qarashlarga suyangan holda estetik-falsafiy yo‘sinda yondashiladi. Masalan: «Navoiy dostonlarida hayot voqeliklari ramziy tarzda berilishining sababi nimada deb o‘ylaysiz?», «Bobur she‘riyatidagi tag ma‘nolarni ilg‘ashga harakat qiling. Yor va diyor visoli mushtarakligi to‘g‘risidagi fikr she‘riy ifodada qanday mahorat bilan berilganligini sharhlang» va hokazo.

Keyingi bosqich bo‘lmish o‘rta maxsus ta‘limda bu yondashuv biroz kengayadi va chuqurlashadi.

Adabiyot muallimi uyga vazifa berar ekan, o‘quvchi toqati va imkoniyati, boshqa fanlardan ham vazifalar berilganligi, keyingi dars qachon bo‘lishi kabi omillarni hisobga olishi lozim. Shuningdek, u yosh xususiyati bilan bir qatorda sinfdagi o‘quvchilarning har biriga xos bo‘lgan jihatlarga individual yondashuvni ham unutmasligi kerak.

### **2.3 Adabiy ta‘lim jarayonida mustaqil mutolaa usullari**

“Metod” soʻzi yunoncha “metodos” soʻzidan olingan boʻlib, “bilish va tadqiqot yoʻli”, “nazariya”, “taʼlimot” kabi maʼnolarni anglatadi.<sup>19</sup> Metodikaning (yunoncha “methodice”) biror ishni bajarish, amalga oshirish, ado etish metodlarining, usullarining yigʻindisi yoki oʻqitish usullari haqidagi taʼlimot<sup>20</sup>ligi nazarda tutilsa, uni taʼlim berish metodlari, yoʻllari va vositalari haqidagi fan deya taʼriflash mumkin.

Didaktikada metod tushunchasi taʼlimning ikki yoqlama mazmunini taʼminlovchi, oʻqituvchi va oʻquvchi oʻrtasidagi oʻzaro uzviy aloqa tizimi sifatida belgilanadi. Ammo metodika va unga yaqin boʻlgan boshqa fanlarda taʼlim metodi biroz boshqacharoq tushunilishi, masalan, “oʻzaro bir-birini taqozo etuvchi usullarning maqsadga yoʻnaltirilgan tizimi”, “oʻquv jarayoni asosiy komponentlari amalga oshirilishi bilan bogʻliq umumlashma model”, “oʻquvchilarning bilish faoliyatini boshqarish usuli”, “oʻqituvchi tomonidan tashkil etilgan oʻquvchilar faoliyati usuli” kabi koʻrinishlarda talqin etilishi mumkinligi. Umumiy tarzda yondashilganda metod taʼlim-tarbiya jarayonini maqsadli, tizimli amalga oshirishni tartibga soluvchi hamkorlik yoʻli boʻlib, taʼlim sifati natijalanishi bilan xarakterlanadi.

Metod tushunchasiga tarixiy nuqtai nazardan qaralganda bu kategoriyaning taʼlim maqsadi, mazmuni va shakliga qarab oʻzgarib turishi kuzatiladi. SHu boisdan har bir tarixiy davrning taʼlim metodlari haqida oʻz tushunchasini ilgari surishini tabiiy hol deb tushunmoq kerak.

Taʼlimning aqliy hujum, guruhlarda ishlash, rolli oʻyin, taqdimot, klaster kabi baʼzi zamonaviy usul va shakllarini ham metod deb yuritish odat tusiga kirgan. Aynan shu holat bunday “metod”larning stixiyali ravishda koʻpayishiga olib keldi.

“Taʼlim metodlari faqat maʼlumotni qanday berishni belgilamaydi. Ular materialning tizimi va uni aynan shu yoʻl bilan ishlashga tayyorlashni ham nazarda tutadi. Yaʼni u oʻquv materialiga singdirilgan bilimni oʻquvchi

---

<sup>19</sup> Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. –Т.: “Ўзбекистон Миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2003. 5-жилд, – 613-бет.

<sup>20</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. –Т.: “Ўзбекистон Миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2003. 2-жилд, –582-бет.



o‘zlashtira oladigan tarzda berishni, bolalarda bilim olish qobiliyatini rivojlantirishni ham qamrab olgan bo‘lishi kerak”<sup>21</sup>.

Ko‘pincha metodga o‘qitish usullarning majmui sifatida qaraladi. Bunda usul metodning qismi, ayrim ko‘rinishi, detali sifatida tushuniladi. Ammo metod va usul orasiga aniq chegara qo‘yilmaydi. Negaki, agar usuldan doimiy ravishda foydalanib, ta’lim asosi qilib olinsa, u qonuniy metod darajasiga o‘sib boradi. Metod tushunchasi “biror harakatni amalga oshirish yo‘li, usuli yoki ko‘rinishi” sifatida ham tavsiflanadi.<sup>22</sup>

Adabiyot o‘qitishda ma’ruza, suhbat, ijodiy o‘qish, reproduktiv, evristik, tadqiqot, ekskursiya, mustaqil ish metodlaridan keng foydalaniladi. Ilmiy metodik adabiyotlarda ijodiy o‘qish, reproduktiv, evristik, tadqiqot kabi metodlar o‘quvchilar faoliyati turi sifatida qaraladi. O‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatining o‘zaro aloqasi xususiyatiga ko‘ra ko‘rgazmali tushuntirish, ijodiy o‘qish, reproduktiv va tadqiqot metodlariga taqsimlanadi. Tabiiyki, bu metodlarning barchasi alohida-alohida, sof holda qo‘llanilmaydi. Mustaqil o‘qishni tashkil etishda ulardan kompleks foydalanib kelinishi tabiiy zaruratdir.

Adabiy ta’lim metodlarini tasniflashga bunday yondashuvlar ularni umumiy (faqat adabiyotni emas, balki boshqa ko‘pgina fanlarni o‘qitish jarayonida ham qo‘llanadi) va xususiy (faqat ma’lum o‘quv fanida qo‘llanadi) fan metodlariga taqsimlash imkonini beradi.

Sinfdan tashqari o‘qish mashg‘ulotlarida adabiy ta’limning, asosan, ijodiy o‘qish metodi qo‘llaniladi va u kitobxonning asarni badiiy idrok etish jarayonini faollashtirishga xizmat qiladi.

Adabiyotdan Davlat ta’lim standartida ta’lim oluvchilar “...badiiy matnni emotsional tarzda idrok etish va qabul qilishni, obrazli va analitik tafakkur va ijodiy fikrlashni, kitobxonlik madaniyatini, adabiyotning boshqa san’at asarlari bilan yaqin va farqli jihatlari haqidagi tasavvurlarini, ularning og‘zaki va yozma

---

<sup>21</sup> Хусанбоева Қ. Адабиёт – маънавият ва мустақил фикр шакллантириш омили. –Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2009. – 62-бет.

<sup>22</sup> Йўлдошев Ж., Усмонов С.А. Замонавий педагогик технологияларни амалиётга жорий қилиш. – Т.: Fan va texnologiya, 2008. – 25-бет.

nutqlarini rivojlantirish”<sup>23</sup> kabi bajarilishi zarur vazifalar alohida belgilab qo‘yilgan.

Ijodiy o‘qish metodi o‘z ichiga o‘qituvchi va badiiy so‘z ustalarining ifodali o‘qishi, sharhlab o‘qish, suhbat, ijodiy topshiriq singari turli usullarni qamrab oladi. Ifodali o‘qish, yod olish, reja tuzish, hikoya qilish, og‘zaki tasvirlash, instsenirovka qilish, kinostsenariy yozish kabilar ijodiy o‘qish metodi doirasida o‘quvchilar bajaradigan faoliyat turi hisoblanadi.

O‘qituvchi o‘z ijodiy tajribasi va tashabbusiga tayanib yuqoridagi usullarni boyitishi mumkin. Agar o‘qituvchi so‘z san’ati asoslarini egallamasa, o‘quvchilarga ifodali o‘qish ko‘nikma va malakalarini singdira olmaydi. Binobarin, ifodali o‘qish intonatsiya – ohang yordamida badiiy asarning g‘oyasi va jozibasini to‘g‘ri, aniq, yozuvchi niyatiga mos ravishda ifodalay bilish mahoratini anglatadi.

Ifodali o‘qishga asarning g‘oyaviy-badiiy mazmunini idrok etish, munosabat bildirish, yozuvchining ifoda uslubini anglab yetish, o‘z ovozi imkoniyatlaridan to‘g‘ri foydalana olish kabi talablar qo‘yiladi.

O‘qituvchining ifodali o‘qishga tayyorgarligi quyidagicha bir necha bosqichda amalga oshiriladi:

- yozuvchi hayoti va ijodining o‘ziga xos xususiyatlari, asarda aks etgan nuqtai nazari haqida ma’lumotlar to‘plash;
- badiiy asar tili ustida ishlash, tushunilishi qiyin so‘zlarni belgilab olish;
- o‘qish texnikasi ustida ishlash;
- har bir epizod va alohida sahnalarni o‘qishda o‘quvchilar oldiga qo‘yiladigan vazifalarni belgilab olish.

Ifodali o‘qish o‘quvchilar tomonidan to‘laqonli idrok etilishi uchun qahramon roliga kirish; aks ettirilgan voqelikni o‘z tasavvurida jonlantirish; matn mazmuniga nisbatan his-tuyg‘ular uyg‘ota olish talabiga ko‘ra matndagi notanish so‘zlarni izohlash; asarni qismlarga bo‘lib o‘qish, mazmunini tahlil qilish; ko‘tarilgan muammoga munosabat bildirish kabi tayyorgarlik ishlari olib boriladi.

Umumiy oʻrta taʼlim maktablaridagi koʻp yillik pedagogik faoliyatimiz davomida oʻquvchilarni ifodali oʻqishga oʻrgatish murakkab jarayon boʻlib, asar janri, tavsif uslubi, yozuvchi nuqtai nazari bilan bogʻliq usullarni qoʻllash ijobiy samara beradi, degan xulosaga keldik.

Oʻqituvchining ifodali oʻqishi oʻquvchilar faoliyatida oʻz aksini topishi uchun quyidagi usullarni qoʻllash samarali hisoblanadi:

– audio va video yozuvlar orqali yozuvchi yoki badiiy soʻz ustalari tomonidan oʻqilgan badiiy matnni tinglash; (Zulfiya, E.Vohidov, A.Oripov, O.Hojiyeva, O.Matjon, M.Yusuf, S.Sayyid, F.Afroʻz, E.Shukurlarning radioeshittirish va telekoʻrsatuvlarda oʻqigan sheʼrlaridan foydalanish mumkin).

– oʻzaro bogʻliq matnlarda nutqning toʻgʻri ohangini ishlab chiqish (intonatsiya, marom, pauzalarni oʻz oʻrniga qoʻyish, mantiqiy urgʻularni aniqlash);

– koʻchirmalar, maqollar, matallar, aforizmlarni yoddan ifodali oʻqishga oʻrgatish; (televidenie orqali koʻrsatuvlar oraligʻida oʻzbek xalq maqollari, iboralar maʼnosi yuzasidan beriladigan sharhlardan foydalanish shaklida. Masalan, 5-sinfda maqollarga bagʻishlangan mashgʻulotlarda koʻchma maʼno bu janrning yetakchi xususiyatlaridan biri ekanligiga eʼtibor qaratiladi. Jumladan, “Qatorda noring boʻlsa, yuking yerda qolmaydi” maqoli zamirida insonning sadoqatli doʻstlari koʻp boʻlsa, ularning qoʻllab-quvvatlashi, yordami bilan mushkullari oson boʻlishi, har qanday qiyinchilikni osonlikcha yengib oʻtishi haqidagi fikr ilgari surilgan. Aslida ham shunday: katta karvon hamrohligida safarga chiqqan kishi koʻzlagan manziliga hech bir talofatsiz yetib olishi shubhasizligi oʻz maʼnosida qoʻllangan).

Ifodali oʻqishga oʻrgatishning dastlabki bosqichida oʻqituvchi ovoz xususiyati va surʼati haqida tushuncha berishi lozim. Matndagi taʼkidlovchi soʻzlarni ajratib, intonatsiya bilan talaffuz qilish asarning gʻoyaviy-obrazli mazmunini ifodalashda katta ahamiyatga ega. Bunda mantiqiy urgʻuning oʻrni muhim boʻlib, unga ovozni koʻtarish yoki pasaytirish orqali amal qilinadi.

Mantiqiy urg‘u matndagi kesatiq, jirkanish, hurmat, samimiylik singari turli hissiy holatlarni ochishga yordam beradi.

Ifodali o‘qish texnikasi ustida ishlashni to‘g‘ri talaffuzning eng sodda usullari, jumladan, savodli nutqdan boshlash zarur. Nutq savodini (to‘g‘ri nafas olish, urg‘uni to‘g‘ri qo‘yish, aniq talaffuz) o‘qituvchi mashg‘ulot jarayonida ko‘rsatib beradi. Asosiysi – ovoz bilan fikr va hislarning turli tovlanishlarini bera olish ko‘nikmasidir. Aynan turli intonatsiyalarning mavjudligi ifodali va oddiy nutqni bir-biridan ajratib turadi.

Har bir belgi so‘z, so‘z birikmalari va gap turlarining qanday ma‘no ifodalashiga xizmat qiladi. Yakka tinish belgilari butunni qismlarga ajratadi va ular orasidagi chegarani belgilaydi. Nuqta gap tugaganligini anglatib, uning ma‘no jihatdan yakunlanganligini ko‘rsatadi, ko‘p nuqta esa fikr tugallanmaganligini bildiradi. Ikki nuqta ogohlantirish intonatsiyasiga xizmat qiladi. Qo‘shirnoq o‘zgaralar nutqi, qavslar ikkilamchi fikrni ifodalaydi va hokazo. Masalan, Muhammad Alining quyidagi fardida qo‘llanilgan tinish belgilari ayrim kaltabin, nokas kimsalar vaziyatga qarab buqalamun kabi qiyofasini o‘zgartirishi, ezgulikni qadrlay olmasligini baholashga zamin yaratadi:

*Elkamga oyoq qo‘yishib, yana:*

*“Elkang qattiq!” – deya qilurlar ta‘na!..<sup>24</sup>*

Adabiy talaffuzni to‘g‘rilash uchun o‘quvchilarga o‘qituvchi va suxandonlar nutqini diqqat bilan tinglash, so‘z talaffuzini orfoepik lug‘atdan tekshirib olish tavsiya etiladi. Badiiy matn ustida ishlayotganda o‘quvchilar ifodali o‘qishga, muallif fikrini intonatsiya bilan bera olishga, qalamga olingan voqeani fikran tasavvur qilishga o‘rganadilar.

Aynan bir iborani turlicha marom va intonatsiya bilan talaffuz qilish mumkin. Fikr bildirish maromi matn mazmuniga ko‘ra quvonchli, qayg‘uli, tantanali, ishonchli, da‘vatkor, iltimos singari turli ohangda ifoda etiladi.

---

<sup>24</sup>XX asr ўzbek шеърляти антологияси. Муҳаммад Али. Фардлар. –Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007. – 176-бет.

Og‘zaki nutqda ma’nosi muhimroq bo‘lgan so‘z, ibora yoki gaplar ovozni balandlatish – mantiqiy urg‘u bilan ajratib ko‘rsatiladi. Ovoz chiqarib ifodali o‘qish his-tuyg‘ularni ifodalash madaniyatini tarbiyalaydi.

O‘qish texnikasi ta’limning barcha bosqichlarida matn mazmunini tushunish ko‘nikmasi bilan bir paytda ro‘y beradi. Ifodali o‘qish ko‘nikmasini mustahkamlash va takomillashtirib borishda alohida mashg‘ulotlar tashkil qilish, bunga tayyorgarlik jarayonida o‘quvchini shoir yoki yozuvchining hammuallifi bo‘lib qolishiga ishonitirish muhim o‘rin tutadi.

9-sinfda Ikrom Otamurodning “O‘rin” dostonini ifodali o‘qishga o‘rgatishda olam va odamning yaralishi, hayotda har kimning o‘z o‘rni borligi yoki aksinchaligi anglanishiga erishiladi. SHoir kun va tun, yer va osmon, botin va zohir, sobitlik va lafzsizlik, diyonat va nafs, ibtido va intiho, toqatsizlik va chidam, keksa va yosh kabi bir-biriga zid tushunchalarni yonma-yon qo‘llash orqali inson hayotining dramatik holatlarini aks ettirishga harakat qilganiga e’tibor qilaylik: *Andisha nochor kibor tovonidan. Qadr dog‘lanadi ilahsa jabr. Burd yo‘qolgaydir beburd sovidan. Dilga madaddir dildagi sabr*<sup>25</sup>.

Dostonda lirik qahramon yuragini qiymalab og‘riq berayotgan dard-alamlar qisqagina “... *Nimadir... ... Qachondir... ... Kimdir...*” misralariga mohirlik bilan singdirilgan.

So‘roq va gumon olmoshlaridagi ohangni ilg‘ab, satrlar boshi va oxiridagi uch, bandlar orasidagi ko‘p nuqtalar mavjud o‘rinlarda sukut saqlab, to‘xtamlarga rioya qilib ifodali o‘qish dunyoning o‘tkinchiligi haqida insoniyatga shu kungacha jumboq bo‘lib kelayotgan va yechimiga javob izlanayotgan muammolar haqida mushohada yuritishga chorlaydi. Koinotning cheksizligi, osmon jismlarining harakatlari, zamon va makon o‘rtasidagi bog‘liqlik haqida o‘ylashga majbur etadi.

Sinfdan tashqari o‘qish mashg‘ulotlarida ifodali o‘qish rejasi o‘qituvchining yoddan o‘qishi, asarning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari haqida

---

<sup>25</sup> Икром Отамурод. Ўрин. //Шарқ юлдузи. –Т.: 2013. №3, – 32-бет.

suhbat o‘tkazish, nutq kompozitsiyasi ustida ishlash, intonatsiya va maromni aniqlash, qayta hikoyalash kabi faoliyat turlarini ko‘zda tutgan holda tuziladi.

Asarni ifodali o‘qish doim uning tahlili bilan bog‘liq. Tahlil badiiy asarning o‘ziga xosligi haqida o‘quvchilar tasavvurini chuqurlashtiradi, undagi nafosatni his qilishga imkon beradi. Masalan, 6-sinfda o‘quvchilarni Hamid Olimjon ijodi bilan chuqurroq tanishtirishga mo‘ljallangan mashg‘ulotlarda adabiyotshunos olim N.Karimovning “Hamid Olimjon” nomli ma’rifiy-biografik romanidan unumli foydalanish o‘quvchini shoir shaxsiyatining noma’lum qirralaridan voqif etadi.

O‘qituvchining kirish so‘zi “Eng gullagan yoshlik chog‘imda”, “Xayolimda bo‘lding uzun kun”, “O‘rik gullaganda” kabi she‘rlarning yozilish tarixi bilan boyitilsa, shoir ijodiy ustaxonasi haqida kengroq tushunchaga ega bo‘linadi.

“O‘rik gullaganda” – tabiatning yaratuvchanlik qudratidan junbushga kelgan sohir qalb tuyg‘ulari mahsuli. Spe‘r 1937 yilning 30 martida yozilgan. Qozog‘iston safaridan qaytgan kuni saharlab uyg‘ongan shoir ilohiy mo‘jiza qoshida lol qoladi. *“Derazadan quyosh yog‘dusi emas, balki allaqanday pushtirang shu‘la tushib, uning ko‘zini qamashtirib yubordi. Kuni kecha u Olmaotaga yo‘l olganida, hali mast uyquda yotgan o‘rik daraxti chaman bo‘lib ochilgan edi”*<sup>26</sup>.

Spoirni to‘lqinlantirgan bu latiflikdan ohorli tashbehlar dunyoga keladi: “Novdalarni bezab g‘unchalar, Tongda aytdi hayot otini...”

Ushbu voqea hikoya qilingach, she‘r yoddan ifodali o‘qilishi, unga bastlangan qo‘shiq eshittirilishi o‘quvchilarni xayolan lirik qahramonning o‘sha paytda tuygan holatni chuqurroq anglashga, asar g‘oyasini idrok qilishga yordam beradi. Turli janrdagi asarlarni idrok etish asosida o‘quvchi so‘z zamiridagi ma’no tovlanishlaridan zavqlanadi, inson ruhiyati bilan bog‘liq sir-sinoatlarni anglash sari qadam qo‘yadi.

---

<sup>26</sup> Karimov N. Hamid Olimjon. –T.: Sharq, 2013. –144-bet.

**Sharhli o‘qish.** Sharhlab o‘qish samaradorligi o‘qituvchining darsga tayyorgarlik darajasi bilan belgilanadi. Bunday tayyorgarlik maqsadni aniqlash, matndan sharhlashni talab qiladigan so‘zlar, iboralar, muammoli masalalarni belgilash, savol-javoblar asosida talqin etish kabi tizimni nazarda tutadi. SHarhlab o‘qish aynan lug‘at ustida ishlash emas, balki tarixiy, afsonaviy, sarguzasht, memuar, ba’zan zamonaviy mavzudagi asarlarda uchraydigan izoh talab masalalarni o‘z ichiga oladi.

O‘quvchilar boshlang‘ich sinf “O‘qish”, “Odobnoma”, 5-sinf “Adabiyot” darslarida odob-axloqqa doir hadis namunalari bilan tanishtirilib boriladi. Hadislar mavzusiga bag‘ishlangan sinfdan tashqari o‘qish mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning yosh xususiyatlari Qur’oni karim, hadis, muhaddis, vahiy, sahih, nosahih, roviy kabi ayrim so‘zlar sharhlanishini taqozo etadi. Jumladan, forsha “payg‘ambar” so‘zi izohlanishi jarayonida “Islom e’tiqodiga ko‘ra xudoning xohish-irodasini, buyruqlarini insonlarga yetkazuvchi zot, nabi, rasul”<sup>27</sup> degan ma’noni anglatishi, turli dinga mansub xalqlarning payg‘ambarlari haqida batafsil ma’lumot berilishi o‘rinli hisoblanadi.

Hadis – Qur’ondan keyin turuvchi ikkinchi muqaddas manba. Insonni egulikka, komillikka eltuvchi ma’naviy xazina sifatida qadrlanuvchi hadislarda payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalomning hayotlari va odatlari, diniy va axloqiy ko‘nikmalari o‘z aksini topgan. Ularda birodarlik, qarindoshlik, ota-ona va farzandlar haq-huquqlari, mehr-oqibat, halollik, poklik, adolat, insof kabi insoniy fazilatlar targ‘ib qilinadi. SHu bilan birga yolg‘onchilik, manmanlik, adovat, zulm kabi illatlar qoralanadi. Xususan, Muhammad payg‘ambar hayoti va hadislari insonlarga ibrat namunasidir.

O‘qituvchi uchun adabiy materialni tanlash, lug‘at bilan ishlash jarayonida notanish so‘zlar va iboralarni tushuntirish ishlari ancha qiyinchilik tug‘diradi. O‘qituvchi o‘quvchilar bilan asarni o‘rganishning birinchi bosqichidayoq undagi ko‘pgina muammolar haqida gaplashib olishga imkon tug‘iladi.

---

<sup>27</sup> Berdak Yusuf. Mumtoz adabiy asarlar lug‘ati. –T.: Sharq, 2010. – 315-6er.

Sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotining maqsadiga ko'ra sharhli o'qish chuqurlashtirish, umumlashtirish kabi turlarga bo'linishi mumkin.

Badiiy asar matnini o'rganish amaliyotida sharhning quyidagi turlari qo'llaniladi:

- lingvistik (notanish so'z va iboralarni izohlash);
- tarixiy-maishiy (tarixiy fakt va voqealar bilan tanishtirish, nomlar va ismlarni, maishiy va etnografik tushunchalarni izohlash);
- tarixiy-adabiy (davr va adabiy oqimlar tavsifi);
- g'oyaviy-uslubiy (asarning obrazli va g'oyaviy-tematik tizimini kuzatish).

Matni o'qishdan oldin sharhlash usuliga murojaat qilish kirish mashg'uloti oldiga qo'yiladigan matni idrok etishga tayyorgarlik bilan bog'liq vazifani bajaradi. O'qish jarayonida matnning g'oyaviy-badiiy jihatdan ahamiyatli bo'lgan ba'zi detallari, asarning qanday sharoitda, qay tarzda yaratilgani o'qituvchining kirish so'zi sifatida qisqa sharhlanadi. Masalan, 9-sinfda O.Yoqubovning "Ulug'bek xazinasi" romani bilan tanishilayotganda muallifga turtki bo'lgan bir voqea, albatta, tilga olinishi zarur. Xotiralarda yodga olinishicha, Ulug'bek kutubxonasidagi kitoblar shogirdlari tomonidan Urgut tog'lariga yoki SHahrisabz yaqinidagi bir g'orga yashirilganligi taxmin qilingan maqola bilan tanishgan muallif "*Samarqandga yo'l oladi. Go'ri Amir va Ulug'bek madrasalarining g'ira-shira, nim qorong'u yo'laklarida kezadi, atoqli riyoziyotchi qozizoda Rumi va Ulug'bek navjuvon talabalarga aytgan mashhur madrasaning ulkan o'sha vaqtdagi yarim vayrona xonasida o'yga cho'madi. Necha daf'a buyuk rasadxona xarobalarini titroq va hayajon bilan ko'zdan kechiradi*"<sup>28</sup>.

Asar yaratilgan vaqt va voqealar kechgan davr o'rtasidagi tafovutlarni sharhlash jarayoni nafaqat o'tmishga qaytishga, balki hozirgi kunning eng dolzarb muammolarini yoritishni ham taqozo etadi. Jumladan, Mirzo Ulug'bek, Qozizoda Rumi, Ali Qushchi kabi tarixiy shaxslar; qadimgi Movarounnahr, Shohruhiya,

---

<sup>28</sup> Абдурахмонова У. Бутун борлик ижодхона. //Til va adabiyot ta'limi. –T.: 2014, №10. – 47-бет.



Xuroson davlatlarining geografik joylashuvi; “Kitob ush-shifo”, “Kitob un-najot”, “al-Qonun al-Ma’sudiy” nomli benazir bitiklarga beriladigan sharhlar o‘quvchilarda yurtimiz o‘tmishi, ajdodlar ilmiy merosi haqida tushunchalar hosil qilibgina qolmay, mavzu yuzasidan kichik ilmiy izlanishlar olib borishga poydevor vazifasini o‘tashi, shubhasiz.

Adib tarixiy sharoit, qahramonlar turmush tarzi, muomala madaniyati, joy nomlari, liboslar, ilm-fanga oid ayrim atamalarni o‘quvchiga yetkazishda qo‘llagan eski o‘zbek adabiy tili fonetik xususiyatlari, leksik boyliklari, stilistikasi ko‘p hollarda sharhlashni talab etadi. Xususan, Qalandar Qarnoqiy monologini sharhlash orqali ajdodlarimiz ma’naviyati, tafakkur tarzi va ijtimoiy munosabatlar yuzasidan tegishli xulosa chiqarish imkoni yuzaga keladi. *“Gunohkor bandangni kechirgaysen, ey parvardigori olam! Faqir bu bebaqo dunyo lazzatlarini tark etib, haq yo‘lini tanlaganda tariqat o‘rniga bunday nopok yumishlar qilamen deb o‘ylagan edimi?.. Mavlono Ali Qushchi betavfiqmi yo imoni barkamol bandangmi – buni bu takabbur shayx qaydin bilur, tangrim?”*<sup>29</sup>.

Epizod, parcha o‘qilganidan so‘ng muallif g‘oyasi, tasviriy ifoda vositalarini ochib berishga qaratilgan to‘la sharh beriladi.

Sharhlab o‘qish usulidan asar matni yuzasidan savol tuzish, ayrim epizod va sahnalarni ifodali o‘qish, qalamga olingan muammolar bo‘yicha bahs-munozara tarzida ham foydalanish mumkin. Sharhli o‘qish tahliliy xususiyatiga ega bo‘lgan suhbatga ancha yaqinlashadi.

Adabiyot o‘qitish metodikasida o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirib borish va so‘zga nisbatan ongli munosabatda bo‘lish taqozo qilinadi. So‘z ustidagi ish aniq adabiy material asosida olib borilishi va o‘quvchiga asarni tushunishga yordam berishi lozim. Masalan, *“...O‘rmondan doim anbar nasimi esib turar, tuprog‘idan ham anbar isi anqib turar, sandal-u, obnus, sandarus, shabah kabi xushbo‘y daraxtlar u yerda serob edi”*<sup>30</sup>.

---

<sup>29</sup> Ёкубов Одил. Танланган асарлар. II жилд. –Т.: Шарк, 2007. – 71-бет.

<sup>30</sup> Алишер Навоий. Хамса. Қискартириб нашрга тайёрловчи А.Ҳожиаҳмедов. –Т.: Янги аср авлоди, 2013. – 268-бет.

*Anbar* – kitsimonlar tanasidan olingan xushbo‘y modda. *Sandal* – tanasi qora-sariq rangli, xushbo‘y hid taratuvchi daraxt<sup>31</sup>. *Obnus* – qora daraxt<sup>32</sup> kabi.

Sharhlash chog‘ida so‘z ustida ishlashning metodik usullari va shakllarini tanlashga ijodiy yondashuv badiiy asarni to‘laqonli tushunishiga xizmat qilishi kerak. Masalan, 9-sinfda “Alpomish” dostoni qahramonlari ma’naviy dunyosiga munosabat bildirilayotganda amalga oshirilgan sharh u yoki bu voqelik yuzasidan o‘quvchida tasavvur uyg‘otishga yordam beradi. Xususan, Boysarining qavm-qarindoshlaridan bezib, begona yurtlarda sargardon bo‘lishiga sabab bo‘lgan zakot voqeasi, tabiiyki, sharhlash talab qiladi.

O‘g‘li Hakimbek bilan saxiylik fazilati va ziqnalik qusurlari haqida suhbatlashib o‘tirgan Boybo‘rida ukasini yot odatlardan asrash istagi tug‘iladi. SHu suhbat bahonasida inisiga odam yo‘llab, o‘z ixtiyori bilan zakot berishini so‘raydi.

Ma’lumki, islom dinida mulkdor musulmonlar mol-mulki va daromadining qirqdan bir ulushi miqdorida olinadigan diniy soliqqa zakot deyiladi. Nabiy sollalahu alayhi vasallamning: “Qarindoshlariga zakot bergan odamga ikkita savob tekkeydir – biri qarindoshlariga oqibat qilgani uchun, ikkinchisi – zakot bergani uchun”, – deyishi bejiz emas, albatta.

Noo‘rin izzat-nafsdan ko‘ngil ko‘zi xira tortgan Boysari o‘z tug‘ishgani asl maqsadini anglashda ojiz qoladi. Oqibatda nafaqat oilasi, balki butun qabiladoshlari ham anchagina ko‘ngilsizliklarni boshidan kechirishga majbur bo‘ladi. Dostonda zakot voqeasi syujetni harakatlantiruvchi asosiy vosita bo‘lib, qahramonlar boshidan kechirgan turfa sarguzashtlarni yuzaga keltirgan.

Sharhlash o‘quvchida insonlarni ezguliklarga chorlovchi ayrim an’ana va qadriyatlar mohiyati haqida yangi bilimlarni o‘zlashtirish, qahramonlar xatti-harakatlaridan xulosa chiqarish ko‘nikma va malakalarini shakllantiradi.

Badiiy asarlarda sharhlashni talab qiladigan so‘zlar ko‘plab uchraydi. Bunday paytda o‘qituvchi sharhiga illyustratsiya ilova qilinsa, tushunish osonlashadi. Masalan, “Xamsa” dostoni qahramonlari, “Boburnoma”da hayvonot

---

<sup>31</sup> Berdak Yusuf. Mumtoz adabiy asarlar lug‘ati. –T.: Sharq, 2010.

<sup>32</sup> Навоий асарлари учун қисқача луғат. Тузувчи Б.Ҳасанов. –Т.: Фан, 1993.

va nabobat olami, Uvaysiy chistonlariga ishlangan miniatyuralar, qomuslar, lugʻatlardan foydalanish oʻquvchilarning aqliy faoliyatini oʻstirish, kuzatish koʻnikmasini rivojlantirishga yordam beradi.

Slaydlar, hujjatli, oʻquv va ilmiy-ommabop filgʻmlar singari statik koʻrgazmali qurollar leksik sharh uchun mos keladi. Namoyishdan maqsad oʻquvchilarga asar matnida uchrashi mumkin boʻlgan qator soʻzlarning maʼnosini izohlash orqali tasavvuri va nutqni oʻstirishdir.

Matn ustida ishlash jarayonidagi sharh kontekst izohning loʻndaligi va koʻrgazmaliligini taʼminlash, ayrim soʻzlarning semantiklashuvini oʻz ichiga oladi. Eskirib qolgan soʻzlar bilan yonma-yon zamonaviy shaklini yoki sinonimini berish qiyin emas. Oddiy umumxalq tilidagi soʻzlar izohlanishi, koʻp maʼnoli soʻzlar yoki iboralar taʼkidlanishi mumkin. Ayniqsa, mumtoz va tarixiy asarlarni oʻrganish jarayonida bu talablarning koʻzda tutilishi oʻquvchilarning matn mazmunini tushunish, davr ruhini his qilish, til xususiyatlarini oʻrganishga boʻlgan qiziqishlarini oshiradi.

### **III bob. BMI ning amaliyotga tatbiqi**

#### **3.1. Tajriba-sinov ishlari**

TDIU qoshidagi nomli akademik litseyda sinov darslari sifatida uyushtirildi. Adabiyot – soʻz sanʼati. Badiiy adabiyot hayotni soʻz orqali tasvir etadi. Adabiyotda hayotning muhim voqea-hodisalari, kishilarning oʻziga xos xislatlari, ruhiyati, orzu-umidlari, dardi, sir-asrori aks etadi. Shu tariqa, adabiyot turmushni oʻrganish quroli boʻlib xizmat qiladi. Badiiy asar inson kamolati ucnun muhim vosita sifatida katta ahamiyatga egadir. Adabiy asarlarda hayot aks ettiriladi va bu ijtimoiy dunyoqarash omillarini shakllantiradi. Badiiy asarda ifoda etilgan gʻoya, mazmun, mohiyat kitobxon ichki dunyosiga, ruhiyatiga taʼsir etadi. Resʼublikamiz birinchi Prezidenti bejizga: “...**adabiyot masalasi bu maʼnaviyat masalasidir**”<sup>33</sup>, – degan fikrni aytmagan. Maʼnaviy komil inson tarbiyasi albatta

---

<sup>33</sup> Karimov I. A. Adabiyotga eʼtibor – maʼnaviyatga, kelajakka eʼtibor. –T.: “Oʻzbekiston”, 2009. -23 b.

badiiy asarlardan olingan zavqlanish, ta'sirlanish, o'z-o'zini tarbiyalash negizida shakllanib boradi. Badiiy asarning mohiyatini to'g'ri anglash va adabiy hodisalariga baho berish, o'z dunyoqarashi orqali tahlil qilish orqali inson mustaqil fikrlash, ijtimoiy hayotga munosabat tuyg'ularini shakllantiradi.

<b>Mavzu</b>	<b>Abdulla Oripov hayoti va ijodi.</b>
--------------	--

### 1.1. Ta'lim berish texnologiyasining modeli

<b>Mashg'ulot vaqti - 3 soat</b>	<b>O'quvchilar soni – 25 ta</b>
<b>Mashg'ulot shakli</b>	Mavzu bo'yicha bilimlarni kengaytirish va mustahkamlash yuzasidan amaliy mashg'ulot.
<b>Amaliy mashg'ulot rejasi</b>	<p><b>Abdulla Oripov hayoti va ijodi.</b></p> <p>1. Abdulla Oripov hayoti bilan bog'liq yangi ma'lumotlar orqali kirish mashg'uloti o'tkazish. Shoir hayoti va ijodiga doir xronologik jadvallar, savolli tarqatmalar tayyorlash.</p> <p>2. Shoirning she'rlari bilan tanishish. Shoirning ijodi yuzasidan kichik kutubxona yarating hamda kartotekalar tayyorlash.</p> <p>3. Shoirning hayoti bilan bog'liq tarixiy voqealarni yozish va sohaga yo'naltirilgan atamalardan foydalanish.</p> <p>4. She'rlaridan ifodali o'qib, tahlil qilish.</p> <p>5. Shoirning ijodini bo'limlarga bo'lib, kichik guruhlar asosida tahlil qildirish.</p>
<b>Maqsad, vazifalar</b>	<p><b>Ta'limiy:</b> O'quvchining mavzuga oid ko'nikmalarini hosil qilish, adabiyot orqali dunyoqarashini boyitish, komil inson qilib tarbiyalash, o'z mutaxassisliklari doirasida she'riyat bilan oshno bo'lish, dars jarayonida ijodkorlik negizini shakllantirish, nazariy va amaliy bilimlarini mustahkamlash..</p> <p><b>Tarbiyaviy:</b> Shoir adabiy merosining ahamiyatini tushuntirish, she'rlarining tarbiyaviy ahamiyatini tushuntirish, og'zaki nutq madaniyatini egallash, mantiqiy izchillikda fikr yuritishga o'rgatish.</p> <p><b>Rivojlantiruvchi:</b> Estetik dunyoqarashini shakllantirish, vatanga muhabbat hissini</p>

	oshirish, pok insoniy tuyg'ularni singdirish, insoniylik fazilarlarini kamol toptirish.
<b>Mavzuni o'zlashtirish uchun zaruriy bo'lgan adabiyotlar ro'yxati</b>	<p>1. I.A. Karimov. Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor. –T., "O'zbekiston", 2009.</p> <p>2. Rafiyev A., G'ulovova N. O'zbek tili va adabiyoti. Kasb-hunar kollejlari uchun darslik. –T., "Sharq". 2006.</p> <p>3. Mirqosimova M., Atamurotova R. Ta'lim bosqichlarida A. Oripov hayoti va ijodini o'rganish. –T., 2012.</p> <p>4. Qozoqboy Yo'ldosh. Yoniq so'z. –T., Yangi asr avlodi, 2006.</p> <p>5. Karimov N. va b. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. –T., O'qituvchi, 1999.</p> <p>6. Mirqosimova M. O'quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish. –T., Fan, 2006.</p>
<ul style="list-style-type: none"> <li>● <b>Pedagogik vazifalar:</b></li> <li>● Adib hayoti va ijodi bilan tanishtirish;</li> <li>● Mustaqil fikrlashga va ijodiy matn tuzishga o'rgatish;</li> <li>● Shoir she'rlari va uning o'ziga xususiyatlarini o'rgatish;</li> </ul> <p>She'rlardagi inson, vatan, muhabbat kabi tismollarni tahlilga tortish.</p>	<ul style="list-style-type: none"> <li>● <b>O'quv faoliyati natijalari:</b></li> <li>● Adib hayoti va ijodi haqida axborot materiallaridan foydalanadi;</li> <li>● Adib ijodining komil inson tarbiyasidagi ahamiyat xususida suhbat o'tkazadi;</li> <li>● She'rlardan tahlil qiladi.</li> </ul>
<b>Ta'lim berish usullari</b>	Keys-stadi, kichik guruhlarda ishlash, savol-javob, suhbat usuli, «Aqliy hujum»
<b>Ta'lim berish shakllari</b>	Kichik guruhda ishlash.
<b>Ta'lim berish vositalari</b>	Darslik, tarqatma material, ijodiy matn.
<b>Ta'lim berish sharoiti</b>	Texnik ta'minlangan, guruhlarda ishlash uchun mo'ljallangan auditoriya
<b>Monitoring va baholash</b>	Og'zaki nazorat: savol-javob, ijodiy yondoshuv.

## 1.2. "Abdulla Oripov hayoti va ijodi mavzusidagi amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
<b>Tayyorgarlik bosqichi</b>	Mavzuni aniqlaydi, ta'limiy maqsadni belgilaydi va kutilayotgan natijalarni	

	shakllantiradi. Belgilangan ta'limiy maqsadlarga mos o'quv-bilish topshiriqlarini ishlab chiqadi, taqdimot tayyorlaydi. (1-ilova)	
<b>1. O'quv mashg'ulotiga kirish bosqichi (15 daqiqa)</b>	1.1.O'tilgan mavzuni mustahkamlaydi va yangi mavzuga ko'prik yasaydi. Mavzu va adabiyotlar ro'yxatini berib, ularga qisqacha ta'rif beradi 1.2.Mavzuning nomlanishi, maqsadi va kutilayotgan natijalarini bayon etadi. 1.3.O'quvchilarni kichik guruhlarda ishlash texnikasi qoidalari bilan tanishtiradi. 1.4.Mavzu bo'yicha «Aqliy hujum» metodidan foydalanib tezkor so'rov o'tkazadi va talabalarni faollashtiradi. 1.5.Ishchi guruhlarda o'quv topshiriqlarini bajarish orqali amalga oshirilishini e'lon qiladi. Keys-stadi bo'yicha muammoli topshiriq beriladi va 1-,2-,3-ilova bo'yicha ustunini to'ldirishni so'raydi. 1.6.O'quvchilar bilimlarini faollashtirish maqsadida savollar beradi.	Tinglaydilar, yozib oladilar  Savollar bilan murojaaaat etadilar, aniq tasavvurlar tizimiga ega bo'ladilar.  O'quvchilar berilgan savollarga javob beradilar  O'quvchilar berilgan muammoli savol jadvalini to'ldirishadi O'quvchilar berilgan savollarga javob beradilar
<b>2. Asosiy bosqich (55 daqiqa)</b>	2.1.»Aqliy hujum» savollariga javob beriladi. 2.2.Mavzu bo'yicha mashg'ulot rejasi va asosiy tushunchalari bilan tanishishni taklif etadi. 2.3.Slaydlarni namoyish qilish va izohlash bilan mavzu bo'yicha asosiy nazariy ma'lumotni tushuntirib beradi. 2.4.O'quvchilar bilimlarini faollashtirish va mustahkamlash maqsadida savollar beradi.	«Aqliy hujum» savollariga javob beradilar. Tinglaydilar, yozadilar.  Tinglaydilar, muhim joylarini o'z daftarlariga qayd etadilar.
<b>3. Yakuniy bosqich (10 daqiqa)</b>	3.1.Aniq tasavvurlar shakllanmagan qismlarini qayta tushuntiradi. 3.2.Mavzu bo'yicha o'quvchilarda yuzaga kelgan savollarga javob beradi, yakunlovchi xulosa qiladi. 3.2.Shoir she'rlaridan yod olish. Kutubxonashunoslik sohasiga tegishli kartotekalar tayyorlash.	Savollar beradilar  Topshiriqni yozib oladilar.

## **Abdulla Oripov hayoti va ijodi.**

### **Reja:**

1. Abdulla Oripov hayoti va ijodi.
  2. Shoirning she'rlari bilan tanishish.
  3. Shoirning she'rlaridan ifodali o'qib, tahlil qilish.
  4. Shoirning ijodini bo'limlarga bo'lib, kichik guruhlar asosida tahlil qildirish.
- Vatanparvarlik ulug'langan she'rlari asosida esse yozish.

### **Abdulla Oripov hayoti va ijodi**

Abdulla Oripov o'zbek adabiyotining atoqli namoyandalardan biridir.

Abdulla Oripov 1941 yilning 21 martida Qashqadaryo viloyatining Koson tumaniga qarashli Neko'z qishlog'ida tavallud topdi. Taniqli munaqqid M. Qo'shjonov aytganidek, yosh Abdullaning bolalik yillari tabiat qo'ynida - keng qirlar, purviqor torlar qo'ynida kechdi. Qalbiga yoshlikdan go'zallik va nafosat tuyrulari singdi. Abdulla Oripov 1958 yilda o'rta maktabni, 1963 yilda esa O'rta Osiyo davlat universitetining jurnalistika fakultetini muvaffaqiyatli bitirdi. 1963 yildan boshlab gazeta va jurnallarda, nashriyotlarda, yozuvchilar uyushmasida turli lavozimlarda ishladi, Jamoat va davlat ishlarida faol ishtirok etdi. Xalq noibi bo'ldi. Mustaqil O'zbekiston davlati madhiyasi matnini ham Abdulla Oripov yozgan.

Abdulla Oripov ijodi 50-yillarning oxirlaridan boshlangan bo'lsa-da, 60-yillarda o'ziga xos yo'nalishni boshlab berdi. Ma'lumki, 60-yillarga kelib hayotdagi singari adabiyot olamida ham jonlanish, ijobiy o'zgarishlar yuz bera boshladi. Shaxsga sig'inish illatlarining fosh etilishi adabiyotda hukm surgan konfliktsizlik nazariyasining asta sekin barham topishiga, soxta ko'tarinkilik va madhiyago'ylik o'rnini badiiy mukammallik, teran mushohadalar egallashiga olib kela boshladi. Xuddi shunday o'zgarishlar jarayonida adabiyot olamiga kirib kelgan yosh ijodkorlar ijodida bu hol yaqqol namoyon bo'la boshladi.

Abdulla Oripovning birinchi she'riy to'plami "Mitti yuzduz" 1965 yilda e'lon qilindi. Shundan so'ngshoirning "Ko'zlarim yo'lingda" (1967), "Onajon" (1969), "Ruhim" (1971), "O'zbekiston", "Qasida" (1972), "Xotirot" (1974), "Yurtim shamoli" (1974), "Hayrat" (1979), "Hakim va ajal" (1980), "Najot qal'asi" (1981), "Yillar armoni" (1983), "Ishonch ko'priklari" (1989), "Haj daftari" (1992) va boshqa to'plamlari chop etildi.

### **Abdulla Oripov she'riyati.**

Abdulla Oripov she'riyatining mavzusi g'oyat keng va rang-barang, u adabiyotda asrlar davomida yetakchi mavzu bo'lib kelgan sevgi-muhabbat, vatanga mehr, do'stlik, iymon-e'tiqod, inson va tabiat, ezgulik, yovuzlik, urush va tinchlik, xullas barcha mavzularda samarali ijod qilgan. Eng muhimi, bu mavzularda yaratilgan asarlarida o'ziga xos, boshqalarni takrorlamaydigan poetik manzaralar yarata oldi.

Sevgi-muhabbat mavzusi adabiyotning azaliy va doimiy navqirok mavzulardan biridir, Zero, inson qalbi qanchalik ezgulikka tashna bo'lsa, intilsa, sevgi-muhabbatga ham shunchalik talpinadi. Shunga ko'ra Abdulla Oripov she'riyatining muayyan qismini mazkur yo'nalishdagi she'rlar tashkil etadi. Bu tipdagi she'rlarida ham shoir ko'proq inson qalbi dramalarini, hijron motivlarini kuylaydi. Shu jihatdan shoirning muhabbat haqida "Birinchi muhabbatim", "Ayol", "Chuvaladi o'ylarim sensiz", "Qo'ygil, u kunlarni eslatma menga", "Ohu" kabi ko'plab she'rlari xarakterlidir.


Abdulla Oripov "Birinchi muhabbatim" she'rida ilohiy muhabbatni kuylaydi. Shoir lirik qahramonining iztirobli kechinmalarini tasvirlar ekan, mumtoz she'riyatdagi kabi falak, oy, goldU<sup>3</sup> kabi poetik obrazlardan mohirlik bilan foydalanadi. Asarda ilk muhabbatini yo'qotgan, hijron azobida qiynalayotgan lirik qahramonning fojeali holati realistik tarzda chiziladi. Inson chorasiz qolgan paytda ko'kka, oy va yulduzlarga, oллоhga iltijo qiladi. She'rdagi lirik qahramon kechinmalari asta-sekinlik bilan taranglashib boradi va o'ziga xos fojeali ohang hosil qiladi.



A.Oripovning "Ayol" she'rida esa bu fojeaviylik insonning ma'naviy dunyosi bilan bokliq holda tasvirlanadi. Vafo va vafosizlik, sadoqat va z'tiqodsizlik bir-biriga qarama-qarshi qo'yiladi,


Ayol sadoqat ramzi. Lekin shu timsolga aylanish uchun u o'zinning butun bir umrini, yoshligini, orzu-havasini, visol onlarini qurbon qiladi. Ba'zi tanqidchilar aytganidek, u ham qayta turmush qurib, o'z baxtini topishi mumkin edi. Buning uchun uni hech kim vafosizlikda ayblamasdi ham. Chunki bir qarashda jangda vafot etgan jangchi uchun vafo timsoli bo'lish va o'zini bir umrlik hijron azobiga mahkum etish hayot qonuniyatlari nuqtai nazaridan mantiqsizlikdir. Lekin badiiyat, she'riyat faqat hayotning nusxasini yaratuvchi emas. Hayotda qanday bo'lsa, shunday tasvirlamaydi. Badiiyatning o'z haqiqati, o'z qonuniyati bor. U ana o'sha qonuniyatlari bilan ish yuritadi. Shuning uchun ham ayol she'rida sadoqat timsoli bo'lib, fojeaviy obraz darajasiga ko'tarila olgan, Ayol obrazi she'rida ikkinchi bir muhim poetik vazifani ham bajarib kelayotir. U o'z fojeasi bilan boshqa bir fojeliqni, o'z fojeasiga qarama-qarshi bo'lgan fojellikni yoritishga xizmat qilayotir. She'rida tasvirlanayotgan, "tirnoqlar bezagi uchun sahardan shomgacha toqat qilib, yorini kutgali esa tirnoqcha sabr topa olmagan yengiltak yosh-yalanglar" obrazi ham o'ziga xos fojeliikka mahkumdur. Ma'naviy tubanlik ular fojeasining asl manbaidir. Shunga ko'ra she'rida shoir inson ruhiyatiga xos bo'lgan ikkita qarama-qarshi kuchni topa olgan va har ikkalasini fojeiy timsol darajasiga ko'tara olganligi uchun ham badiiy mukammal asar yaratganidir.

#### VIZUAL MATERIALLAR



# E'tiborni jamlash o'yini.

- “Jannatga yo'l”
  - “Hakim va ajal”
  - “Ranjkom”
  - “Sobibqiron”
- Rais, farrosh ayol, savdoyi olim
  - Sartarosh, Amir Temur, eshikbon
  - Malika, hakim, mirzo
  - Yigit, o'zga odam, tarozibon



## She'riy kitoblari

Dunyo  
(1995)

Haj  
daftari  
(1992)

Saylanma  
(1996)

## Tarjimalari

Q. Quliyev. "Johilga,  
mayli, baxt hamisha  
yordir"

A. Feynberg.  
"Eski fonus"

N. Tixonov.  
"Shoirlga"

Dante. "Ilohiy  
komeidiya"

Adhad  
Sino'g'il.  
"Qaydadir"

**“Abdulla Oripov she'riyati. “Sohibqiron” dramasi mavzusidagi darsning  
TA'LIM BERISH TEXNOLOGIYASI**

Dars vaqti-80minut  
1 para (2soat)

O'quvchilar soni – 30 ta

<b>Dars shakli</b>	<b>Noan'anaviy ochiq dars</b>	
<b>Darsning rejasi</b>	1. Abdulla Orpov hayoti va ijodi 2. A. Oripov she'riyati 3. "Sohibqiron" dramasi tahlili	
<b>Darsning maqsadi</b>	<p><b>Ta'limiy:</b> O'quvchining mavzuga oid ko'nikmalarini hosil qilish, **** haqidagi bilimlarini kengaytirish.</p> <p><b>Tarbiyaviy:</b> Inson xulqi, xatti-harakatlari natijasini kitobdagi talqinlar asosida tahlil etish. «Sohibqiron» asari orqali ma'naviy dunyoqarashini boyitish, komil inson qilib tarbiyalash.</p> <p><b>Rivojlantiruvchi:</b> Estetik dunyo-qarashini shakllantirish, badiiy adabiyotga muhabbat hissini oshirish, pok insoniy tuyg'ularni singdirish.</p>	
<b>Mavzuni o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan adabiyotlar ro'yxati</b>	<p>I.A. Karimov. Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor. –T., "O'zbekiston", 2009.</p> <p>Abdulla Oripov Sohibqiron. T., 1996.</p> <p>D. Yusupova Adabiyot. Toshkent – Akademya nashri, 2015.</p> <p>4. Akademik litsey uchun I kitob darslik. T.: -2015</p>	
<b>Pedagogik vazifalar:</b>	<b>O'quv faoliyati natijalari:</b>	
<ul style="list-style-type: none"> <li>Adabiy meros – ma'naviy boylik ekanligini tushuntirish;</li> <li>«Sohibqiron» kitobi haqida qo'shimcha ma'lumotlar to'plash;</li> <li>Kitobdan namunalar yozilgan kartochkalar tarqatish;</li> </ul> <p>Diniy va dunyoviy bilimning inson hayoti va kasbi uchun muhim ekanligini izohlash.</p>	<ul style="list-style-type: none"> <li>Adabiy meros bilan tanishiladi va tushunchalar shakllanadi;</li> <li>Yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi kurashning mohiyati tushuntiriladi;</li> <li>«T texnologiyasi» orqali o'quvchilar faollashadi va bilimlari mustahkamlanadi</li> </ul>	
<b>Ta'lim berish usullari</b>	Ma'ruza, interfaol metodlar, savol-javob	
<b>Ta'lim berish shakllari</b>	Bahs-munozara, suhbat, kichik guruhlarda ishlash.	
<b>Ta'lim berish vositalari</b>	Adabiyot AL darsligi, chizmalar, kompyuter.	
<b>Ta'lim berish sharoiti</b>	Adabiyot xonasi	
<b>Monitoring va baholash</b>	Og'zaki nazorat: savol-javob.	

### Abdulla Oripovning "Sohibqiron" dramasi mavzusidagi darsning

#### TEKNOLOGIK XARITASI

<b>Ish bosqichlari va vaqti</b>	<b>Faoliyat mazmuni</b>	
	<b>O'qituvchi</b>	<b>O'quvchi</b>

<p><b>1-bosqich</b> <b>Darsga</b> <b>tayyorgarlik</b></p>	<p>1.1. Mavzuni aniqlaydi, ta'limiy maqsadni belgilaydi va kutilayotgan natijalarni shakllantiradi.</p> <p>1.2. Belgilangan ta'limiy maqsadlarga mos o'quv-bilish topshiriqlarini ishlab chiqadi, taqdimot tayyorlaydi.</p>	
<p><b>2-bosqich</b> <b>Kirish</b> <b>(20daqiq)</b></p>	<p>1.1. Darsga nisbatan talabalarning motivatsiyasini shakllantiradi va o'quvchilar bilan salomlashiladi.</p> <p>2.2. Davomat aniqlanadi. Ma'naviyat daqiqasi o'tkaziladi.</p> <p>2.3. Uyga vazifa so'raladi va o'tilgan mavzu mustahkamlanadi.</p>	<p>- Fikrlarini jamlaydi va darsga tayyorlanadi.</p> <p>- Uyga berilgan topshiriqni topshiradilar.</p>
<p><b>3-bosqich</b> <b>Asosiy qism</b> <b>(40 daqiq)</b></p>	<p>3.1. Yangi mavzu rejasi, uning maqsad va vazifalarini bayon qiladi.</p> <p>3.2. Yangi mavzuga oid qo'shimcha ma'lumotlarni taqdimot usulida tanishtiriladi.</p>	<p>- Mavzuni yozadi, yangi mavzuga oid ma'lumotlarni eshitishadi.</p> <p>-taqdimotlarni ko'rishadi, muhim joylarini daftarga qayd etadilar.</p>
<p><b>4-bosqich</b> <b>Darsni</b> <b>mustahkam-</b> <b>lovchi bosqich</b> <b>(15 daqiq)</b></p>	<p>4.1. Darsni mustahkamlashda turli usul va texnologiyalardan foydalaniladi.</p>	<p>Berilgan texnologiyalarni bajarishadi</p>
<p><b>5-bosqich</b> <b>Yakuniy qism</b> <b>(5 daqiq)</b></p>	<p>1.1. Uyga vazifa beriladi.</p> <p>1.2. O'quvchilar baholanadi hamda faol ishtirokchilar rag'batlantiriladi.</p>	<p>Topshiriqni tushunadi va dars yuzasidan yakuniy xulosaga keladi</p>

## **DARSNING BORISHI**

### **I. Tashkiliy qism:**

- a) o'quvchilar davomatini aniqlash;
- b) navbatchi faoliyatini nazorat qilish;
- c) o'quvchilarning kiyinish madaniyatini va darsga tayyorligini tekshirish.

**Dars shiori:** *KECHAGINI BILMASAM, BUGUN O'RGANMASAM, ERTAGA MEN KIMMAN???*

## **KUN HIKMATI**

**Kimki o'rganishni uyat or demas,  
Suvdan dur topadi, toshdan la'l olmos.**

**(Nizomiy Ganjaviy)**

O'quvchilar bilan dars shiori hamda kun hikmati birgalikda tahlil qilinadi.

## **II. O'TILGAN MAVZUNI TAKRORLASH**

Daftarlari tekshiriladi. O'quvchilar guruhlariga bo'linadi. "Iqtidorlar", "Iste'dodlar", "Zukkolar". Guruhlarga savolli kartochkalar tarqatiladi.

### **1-guruhga topshiriq.**

Erkin Vohidovning hayoti va ijodi haqida ma'lumot.

### **2-guruhga topshiriq.**

Erkin Vohidovning she'rlari hamda she'riy to'plamlari haqida ma'lumot.

### **3-guruhga topshiriq.**

Erkin Vohidovning doshtonlari, pyesalari hamda tarjimalari haqida ma'lumot.

## **RUHLAR ISYONI DOSTONI**

1. «Ruhlar isyoni» dostoni Nechanchi asr adabiyotining yorqin namunalaridan biri hisoblanadi? – XX asr.
2. Doston kim va nima haqida yozilgan? - Doston o'zining isyonkor she'rlari bilan butun Hindistonni erk uchun, ozodlik uchun kurashga ruhlantirgan otashin bengal shoirining orzu-armonlari, jasorati, fojiviy qismati haqida.
3. Erkin Vohidov dostonning yaratilishida nimalarni aytib o'tadi? - «Ruhlar isyoni» garchi Nazrul Islom haqida bo'lsa-da, unda men shoir hayoti bahonasida o'zinning umuman shoirlik, insonlik, fidoiylik, erkka tashna ijod ahlining zamonasi, xalqi bilan murakkab munosabati, qolaversa, inson hayotining ma'nosi, hayotning ham shafqatsiz, ham adolatli haqiqati haqidagi o'y-mulohazalarimni kitobxon bilan baham ko'rishga intildim», — deydi

## **III. YANGI MAVZU BAYONI**

### **Ijodiy faoliyati**

1. She'riy to'plamlari

Ilk she'riy kitobi 1965-yili "**Mitti yulduz**" nomi bilan bosilib chiqqan.

1967-"**Ko'zlarim yo'lingda**"

1969-"**Onajon**"

1971-“Ruhim”

“O‘zbekiston”, “Qasida”-1972 yili.

2.

### 3. Dostonlari

- “Jannatga yo‘l”
- “Hakim va ajal” (she‘riy drama, Ibn Sinoga bag‘ishlangan)
- “Ranjkom”
- “Sohibqiron” (she‘riy drama, 1996-1998)

### **“SOHIBQIRON” dramasi tahlili**

Abdulla Oripovning “Sohibqiron” asari besh pardali she‘riy dramadir. Unda o‘ttizga yaqin aniq ismli personajlar bilan bir qatorda amirlar, eshikbon, yasovul, choparlar, sartarosh, qariya va boshqalar qatnashadi.

Asarda voqealar boshlanishi oldidan Amir Temur haqidagi she‘r o‘qib turiladi. She‘r 10 bandli bo‘lib, unda sohibqironning jahon tamadduni, tarixidagi buyuk mavqeyi ulug‘lanadi. Unda yana bugungu mustaqillik nafasi ufurib turadi: o‘zbek faxrlansa, har qancha iftihor qilsa arziydi – Temurbekning yulduzi buyuklarning kahkashonida mangu porlab turibdi; u ulug‘ binolar qoldirdi, “Kuch bu- adolatda ” degan hukmni oliysini dunyoga joriy qildi; otani boladan, bolani otadan judo qilayotgan toju taxt kurashlariga barham berdi; unga Alloh ulug‘ baxt nasib etdiki, zoti, shajarasida Bibixonim, Shohruh, Ulug‘bek singarilarham bor; muhimi, uning insoniyatga foydasi ulkan bo‘ldi.

**Asar syujeti: “Sohibqiron”** dramasida Amir Temur janglarda emas, balki ko‘proq o‘ylar girdobida aks ettiriladi. Asarda Temurning murakkab tabiati uning Amir Husayn, Sulton Boyazid, amirlar, o‘g‘illariga munosabatini ko‘rsatish mobaynida yorqin aks etgan. Amir Temur tajribali hukmdor va o‘ychil faylasuf sifatida davlatni ushlab turguvchi tayanchlarni: “Mo‘l xazina, yagona shoh, yengilmas lashkar”, - deya belgilaydi.

A.Oripov Temurning o‘z yo‘li to‘g‘ri-noto‘g‘riligini aniqlashga tinmay urinadigan, bosgan har bir qadami xususida fikr yuritadigan kishi sifatida ko‘rsatadi. Shuning uchun Temurning *“Unutmagil muzaffarman, haqligim uchun”* degan so‘zlari o‘quvchiga qahramon fikrlash tarzining mantiqiy hosilasiday ta‘sir qiladi.

A.Oripov asar bosh qahramonini o‘ylar og‘ushida aks ettiradi. Temur hato qilib birovlarning umriga zomin bo‘lishdan qo‘rqadi. Ammo o‘zini buyuk bir tarixiy missiyaning ijrochisi deb biladi.

Amir Temurning Ahmad Yassaviy bilan uchrashuvi asarning eng ta'sirli lavhalaridan biridir. Bu o'rinlarda Amir Temur o'z hatti-harakatlariga ma'naviy asos qidiradi.

## IV. Yangi mavzuni mustahkamlash

### Topshiriq “Xronologik jadval”

#### 1-guruhga

Yillari	Hayoti va faoliyati
1941-yil 21-mart	Qashqadaryo viloyatiKoson tumanidagi Neko'z qishlog'ida orif bog'bon oilasida tug'ildi.
...	

#### 2-guruhga

Yillari	She'riy to'plamlari
1965-yil	Ilk she'riy kitobi “Mitti yulduz”
...	

#### 3-guruhga

Yillari	Dostonlari handa unvonlari
	Jannatga yo'l
...	

### Guruhlarga savol.

1. “Sohibqiron” dramasi muallif o'z nuqtayi nazarini kimning o'z qarashlari orqali beradi? – Yassaviy
2. Sohobqiron asarida tilga olingan “shabxun” so'zi nimani anglatadi? – Tungi hujumlarni
3. Sohobqiron dramasi necha pardadan iborat? – 5 parda
4. Sohobqiron dramasi kim umrida hech kitob ko'rmay ulg'aygan, deya ta'riflanadi? – Amir Husayn
5. “Sohobqiron” dramasi Temur: “Ulug' bir zot yashab o'tgan zaminimizda”, - deganda kimni nazarda tutgan? - Yassaviyni
6. “Sohobqiron” dramasi madrasaga berkingan Amir husayyni hokim Kayhisrav qanday tanib qoladi? – Zarbof to'nidan
7. “Sohobqiron ” dramasi “Men - Chingiziyman”, - deb maqtanadigan qahramon kim? – Amir Husayn
8. Amir Temurning zavjasi (malikasi) Uljoy Turkon qanday vafot etadi? – A.Temur uchun Amir Husayn tomonidan tayyorlangan zaharli kamoni olib o'zini o'zi o'ldiradi.



9. Amir Temur Yeldirim Boyazid bilan jang qilish paytida Aloviddin bilan nima qiladi va jangni nimalarga o'xshatadi? – shatranj o'ynaydi va jangni shaxmat donalariga o'xshatadi.

#### **V. Uyga vazifa berish**

Uyga vazifa. Abdulla Oripovning hayoti va ijodini to'liq o'rganib o'qib kelish. "Sohirqiron" dramasi 5 ta pardasini o'qib tahlilga tayyorlanib kelish.

#### **VI. O'quvchilarni baholash**

Olingan natijalar orqali o'quvchilar baholanadi. O'quvchilar mavzuni o'zlashtirganiga ishonch hosil qilingandan so'ng, dars yakunlanadi. Dars so'ngida she'r bilan yakunlanadi.

### **3.2. Ochiq dars ishlanmasi.**

“Biz uchun dolzarbligi va ahamiyatini hech qachon yo'qotmaydigan masala bu – farzandlarimizni mustaqil fikrli, zamonaviy bilim va kasb hunarlarni egallagan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega chinakam vatanparvar insonlar etib tarbiyalash vazifasidir”.

#### **Shavkat Miromonovich Mirziyoyev**

Davlatimiz rahbari, muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan 2017-yil mamlakatimizda “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili” deb e'lon qilindi. “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili”ning asosiy maqsad va vazifalari shundaki, aholi bilan doimiy muloqot qilish, ularni qiynayotgan muammolarni hal etishning yangi mexanizmlari va samarali usullarini joriy etishdan iboratdir.

Har qaysi inson, har qaysi oilaning eng ezgu orzu-maqсадlari, hayotiy manfaatlari eng avvalo uning farzandlari timsolida namoyon bo'ladi, ro'yobga chiqadi. Bu borada yurtimizda ko'plab ulkan ishlar qilinmoqda va ular amalda o'zining ijobiy natijasini bermoqda. “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari

yili” Davlat dasturida yoshlarimizni sog‘lom va barkamol etib tarbiyalash masalasi alohida o‘rin egallagan.

Shu bilan bir qatorda 2017-yil 14-martda davlatimiz rahbari tomonidan qabul qilingan “O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari ta’lim tizimiga yangicha yondashishni talab etmoqda. Bu esa o‘z navbatida Vazirlar Mahkamasining 187-sonli va 140-sonli qarorlarini qabul qilinishiga zamin yaratdi. Biz ustozlar davlatimiz tomonidan yaratib berilgan shart-sharoitlardan unumli foydalanib, vijdonan, halol, mas’uliyatni his qilgan holda sidqidildan har bir darsimizni tashkil etishimiz, zamon talabi bilan hamnafas bo‘lishimiz, o‘z ustimizda ko‘proq ishlab, bilimimizni boyitib, qaror va farmonlar ijrosini o‘z vaqtida bajarib borishni har birimizning kundalik vazifamizga aylantirib, doimo amalda qo‘llash burchimiz ekanligini unutmasligimiz kerak.

2017-yil “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili” va O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 26 yilligini nishonlash maqsadida “Fidoying bo‘lgaymiz seni, O‘zbekiston” shiori ostida 2017-2018-o‘quv yili boshlanishi munosabati bilan ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilari uchun “Mustaqillik darslari” ni o‘tishga doir ishlanmani tavsiya etaman.

<b>Darsning texnologik xaritasi</b>		
Fan	Adabiyot	
Dars mavzusi	Baxt neligin senda tuydim, Vatanjonim, Senga fido bo‘lsin mening jonu tanim!	
Davomiyligi	45 daqiqa	
Dars maqsadi:	Ta’limiy	O‘quvchilarda ozod va obod yurtimiz, mustaqil O‘zbekistonning tarixi, mustaqillikni qo‘lga kiritilish jarayoni, istiqloldan keyingi davrda erishayotgan yutuqlari, taraqqiyot yo‘li haqida bilim, ko‘nikma va malakalarni hamda axborot bilan ishlash <b>kompetensiyasi</b> shakllantirish
	Tarbiyaviy	O‘quvchilarni Vatanga sadoqat, milliy qadriyatlarga hurmat, Vatan ravnaqi, yurt farovonligi uchun fidoyilik ruhida tarbiyalash, milliy va umummadaniy <b>kompetensiya</b> elementlarini shakllantirish
	Rivojlan-tiruvchi	O‘quvchilarning mantiqiy fikrlash doirasini kengaytirish, olingan bilim, malaka, ko‘nikmalarni rivojlantirish, Vatan oldidagi mas’uliyatni his qilishga odatlantirish hamda kommunikativ, axborot bilan ishlash, o‘zini-o‘zi rivojlantirish kabi tayanch kompetensiya.
Kutilayotgan natija	O‘quvchilarning Vatanimiz tarixi, uning taraqqiyot yo‘li, 26 yil davomida erishgan yutuqlari, jahon hamjamiyatidagi o‘rni haqida bilimga ega bo‘lishi, Vatanning ona kabi yagona ekanligini dildan his qilish. Shu aziz Vatan ravnaqi, yurt farovonligi xalq tinchligi uchun fidoyijon bo‘lib yashash baxt ekanligini qalban anglashmustaqillikning oily ne‘mat ekanligi, tinch osuda hayot qadriga yetish kerakligi hayotiy misollar asosida o‘quvchilar ongiga singdirish. Dars jarayonida mavzuning o‘rganilishi ilg‘or usullar asosida barcha o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilishiga erishiladi, o‘quvchilar faolligi oshiriladi.	
Dars metodi:	Suhbat, savol-javob, Klaster, “Harf o‘yini”, guruhlarda ishlash.	
Dars turi	Yangi bilim beruvchi, olingan bilim, malaka va ko‘nikmalarni rivojlantiruvchi va umumlashtiruvchi.	
<b>DARS JIHOZI</b>		

Didaktik materiallar	Vatanimiz mustaqilligi aks ettirilgan suratlar, vatanparvarlik ruhi singdirilgan shiorlar, allomalarimiz va buyuk shaxslarning suratlari, birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asari, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz” kitobi, 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi aks ettirilgan plakat
Ta’limning texnik vositalari	Multimediya vositalari.

### Darsning vaqt taqsimoti

T/r	Dars qismlari	vaqti
1	<i>Tashkiliy qism</i>	5 daqiqa
2	<i>O‘tilganlarni takrorlash</i>	10 daqiqa
3	<i>Yangi mavzu bayoni</i>	10 daqiqa
4	<i>Mustahkamlash</i>	10 daqiqa
5	<i>O‘quvchilarni baholash</i>	5 daqiqa
6	<i>Uyga vazifa berish</i>	5 daqiqa

#### **Dars shiori:**

Jannat bog‘isan, Vatan,  
Senga bo‘lsin, fido jon

#### **Darsning borishi:**

**I.Tashkiliy qism:** O‘quvchilar va sinf xonasining darsga tayyorgarligi ko‘zdan kechirib olinadi, navbatchi axboroti tinglanadi. Sinf o‘quvchilari avvaldan tayyorlab qo‘yilgan guruh nomlari yozilgan partalarga o‘tiradilar. Ular 4 guruhga bo‘linishadi.

1- guruh: “Ma’naviyat”

2- guruh: “Ma’rifat”

3- guruh: “Ijodkor”

4- guruh: “Shijoat”

## **II. Takrorlash:**

O‘quvchilarni darsga kirishib olishlari uchun quyidagi savollar “Aqliy hujum” usuli orqali so‘raladi:

### **1. “Ma’naviyat” guruhiga:**

1. Mustaqilligimiz e‘lon qilingan kun? (1991-yil 31-avgust)
2. O‘zbek tiliga Davlat tili maqomi berilgan kun? (1989-yil 21-oktabr)
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasi Yoshlarga oid Davlat siyosati qachon qabul qilingan va necha moddadan iborat? ( 2016-yil, 14-sentabr, 406-sonli qaror, 33-moddadan iborat)
4. O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi qachon qabul qilingan?  
( 2017-yil, 7-fevral)

### **2. “Ma’rifat” guruhiga**

- 1.2017-yil Prezidentimiz tomonidan qanday nomlandi? (Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili)
2. Harakatlar Strategiyasi qaysi yillarga mo‘ljallangan, nechta ustuvor yo‘nalishni o‘z ichiga olgan? ( 2017-2021-yillarga mo‘ljallangan, 5 ta ustuvor yo‘nalishni o‘z ichiga olgan)
- 3.O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qachon qabul qilingan? ( 1992-yil, 8-dekabrda)
4. Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish, o‘qish, mehnat va jamoat ishlarida har tomonlama faol ishtirok etayotgan yoshlarni taqdirlash maqsadida qanday medal ta’sis etildi? (Kelajak bunyodkori)

### **3. “Ijodkor” guruhiga**

1. O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi muallifi kim? (Abdulla Oripov)

2. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-sonli qarori nima haqda?  
(Umumiy o‘rta ta’limning Davlat Ta’lim Standarti haqida)
3. Harakatlar Strategiyasining birinchi yo‘nalishining nomi nima va Harakatlar Strategiyasi ramzida ifodalangan moviy havo rang nimalarni ifodalaydi? (Davlat va jamiyat qurilish tizimini takomillashtirish. Moviy havorang – osmon va toza suv ramzi, buyuk Amir Temur davlati bayrog‘ining rangi)
4. O‘zbekiston yoshlar ittifoqi qachon tashkil topgan? ( 2017-yil, 30-iyun)

#### **4. “Shijoat” guruhiga:**

1. “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan taqdirlangan hamyurtlarimiz kimlar? ( G‘afur F‘ulom, Mirtemir, Oybek).
2. Harakatlar Strategiyasining 2-yo‘nalishining nomi nima va siyohrang nimaning ramzi? ( Qonun ustuvorligini ta’minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, siyohrang – qonuniylik elementlari hisoblangan ustuvorlik va or-nomuslilik ramzi).
3. O‘zbekiston Respublikasida qizlar uchun qanday mukofot ta’sis etilgan?  
( Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti)
4. Yurtimizda turli soha va tarmoqlarda yuksak natija va yutuqlarga erishayotgan yigitlarni taqdirlash maqsadida qanday mukofot ta’sis etildi?  
(Mard o‘g‘lonlar)

#### **O‘qituvchi:**

Kimga dasht boshpana, kimgadir gulzor,  
Har kimning sog‘ingan sajdagohi bor.  
Har hovuch tuprog‘i ko‘zga to‘tiyo,  
Biz uchun qadrdon, shu aziz Diyor!  
O‘ping, ko‘zingizga suring tuprog‘in,  
Har so‘zni muqaddas duodek seving.  
Qadang yuraklarga millat bayrog‘in,  
Vatanni Najmiddin Kubrodek seving.

#### **O‘quvchilar:**

Ko‘nglimning gavhari shu aziz maskan,

Fidodir hamisha unga jonu tan!

**O‘qituvchi:** Ajdodlarimizni xotirlash – muqaddas qadriyat. Bugun mustaqillikning 26 yilligini nishonlash kunlarida muazzam ona yerimiz, aziz tuprog‘imiz, go‘zal va betakror O‘zbekistonimizning gullab-yashnashi, ravnaq topishi, jahon hamjamiyatida o‘z o‘rniga ega bo‘lishi ozod va obod yurt, baxtli davlat sifatida tan olinib bizga tinch va osuda hayot baxsh etgan muhtaram birinchi Prezidentimiz Islom Abdug‘aniyevich Karimovning nomlarini e‘zozlab yod etsak, xotirlasak ming bora arziydi.

Chunki xotiraning ulug‘ tuyg‘u, tarixning asosi ekanligi, tarixiy xotirasi bor inson irodali inson ekanligi haqida birinchi Prezidentimiz o‘z asarlarida ko‘p bora fikr yuritganlar.



Yorug‘ xotirangiz ko‘p xotir etib,  
Har bir so‘zingizni biz yodda tutib,  
Ahad Qayum yig‘lar, sizga she‘r bitib,  
Ketdingiz otajon, bizlarni tashlab.

25 yil davomida asrlarga teng o‘zgarishlar bo‘lgan bu yurtni taraqqiy etgan davlatlar qatoridan o‘rin olishini ta‘min etgan Birinchi prezidentimiz “O‘zbekistondagi barcha bolalar mening bolalarim, hech qachon bo‘sh kelmang, aziz bolalarim, ertangi kun – kelajak sizniki!”, - deya O‘zbekiston yoshlarini har tomonlama yetuk bo‘lib kamol topishini davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylantirgan edilar.

**O‘quvchilar:**

Istiqloldan olib kuch, yashnadi Ona Vatan,  
Gullagan shu Vatanga fido bo‘lsin jonu tan.  
Kel, ajdodlar ruhini doimo shod etaylik,

Olib ruhidan madad buyuklikka yetaylik.

### **III. Yangi mavzu bayoni:**

#### **Darsni o'qituvchi quyidagi ma'lumotlarni berish bilan boshlaydi:**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-iyunda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Davlat Mustaqilligining 26-yillik bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida"gi qarori e'lon qilindi. Bu qarorga asosan bayramni o'tkazish bo'yicha respublikaning tarkibi tasdiqlanib, komissiya zimmasiga "FIDOYING BO'LGAYMIZ SENI, O'ZBEKISTON!" degan bosh g'oyani o'zida mujassam etgan tashkiliy-amaliy, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar hamda targ'ibot-tashviqot ishlari dasturini ishlab chiqish vazifasi yuklatildi.

Bu dastur 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar Strategiyasi va "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili" Davlat Dasturining ma'no-mazmunidan kelib chiqqan holda tayyorlanishi kerakligi uqtirilgan.

Bunga ko'ra quyidagi yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratilishi kerakligi ta'kidlangan.

***"Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz"*** degan tamoyilga asosan mamlakatimizni modernizatsiya qilish, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, parlament va siyosiy partiyalarning rolini, davlat boshqaruvi tizimining sifati va samarasini yanada oshirish, fuqarolik jamiyati institutlari hamda ommaviy axborot vositalari rolini kuchaytirish orqali davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirishga qaratilgan keng ko'lamli ishlarni atroflicha yoritish.

***"Xalq davlat idoralariga emas, balki davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak"*** degan tamoyil asosida joylarda davlat va nodavlat tashkilotlari tomonidan xalq bilan ochiq va samarali muloqot olib borish tizimi yo'lga qo'yilgani, buning natijasida fuqarolarning ko'plab murojaat va muammolari qonuniy hal etilayotganiga alohida e'tibor qaratish;



*“Xalq boy bo‘lsa, davlat ham boy va qudratli bo‘ladi”* degan g‘oya asosida aholi, ayniqsa, yoshlarni tadbirkorlikka keng jalb etish, oilaviy biznes va kasanachilik, tomorqa xo‘jaligini rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar yaratib berish, banklar tomonidan imtiyozli kreditlar ajratish, tegishli tashkilotlar orqali zarur resurslar yetkazib berish tizimi yo‘lga qo‘yilganini aniq misollar bilan ko‘rsatish; *“Ma‘naviyat – eng ta‘sirchan va qudratli qurolimiz”* degan tamoyilga muvofiq aholining madaniy saviyasini yuksaltirish, yoshlar o‘rtasida kitobxonlik, jumladan, elektron kitobxonlikni rivojlantirish, ijodkor ziyolilarning mehnatini munosib rag‘batlantirish va ularning yutuqlarini targ‘ib etish borasidagi ishlarni keng aks ettirish; qo‘lga kiritgan barcha yutuqlarimizning asosiy omili va mezoni sifatida birinchi navbatda xalqimizning fidokorona mehnati, odamlarimiz, avvalambor, yoshlarimizning dunyoqarashi, siyosiy ongi va tafakkuri o‘zgarib, fuqarolik faolligi tobora kuchayib borayotganini hayotiy dalil va misollar orqali talqin etish;

*Qo‘shnilarimiz bilan raqobat qilish emas, balki hamkorlik qilish, mintaqamizdagi muammolarni birgalikda hal etish* tamoyiliga asosan xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta‘minlash, chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish orqali davlatimiz mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli ishlarning mazmun-mohiyatini ochib berish;

Sen ilohiy maskanimsan,	Sen maysa-gul naysonimsan
Tangri mangu siylagan.	Qizday sochin silagan.
Sen oyimsan, osmonimsan,	Jannatlardan yerga tushgan,
Humo qushlar bo‘ylagan.	Rayhonimsan Vatanim!

#### **IV. Mustahkamlash:**

Bugun jahon so‘zlar lutfu kaloming,  
Bugun Mashriq, Mag‘riblarda karvoning.

Bugun dunyo oldi qizing-o‘g‘loning,  
Shajarayu ajdodingga shukrona,  
Hur tug‘ilgan avlodingga shukrona.

Ushbu misralardan keyin Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan islohotlar “Jannat bog‘isan, Vatan, Senga bo‘lsin, fido jon!” shiori ruknida tayyorlangan videorolik orqali namoyish etiladi.



**1- topshiriqda har bir guruh Respublikamizning 26 yillik bayramiga bag‘ishlangan, vatanparvarlik g‘oyalari singdirilgan matn, she‘r, hikmat yoki hikoyalar asosida o‘z tayyorgarliklarini namoyish etishlari kerak bo‘ladi:**

**1-guruh:**

Sen ko‘kdagi somon yo‘lim,  
Yerda ipak karvonim,  
Sen dushmanni sahrolarda  
Adashtirgan Shirog‘im.

Jangda Sulton Temurimsan,  
Fanda Abu Rayhonim.  
Yulduziston bo‘lsa dunyo,  
Cho‘lponimsan, Vatanim.

## **2-guruh:**

O‘zbekistonim – sen kelajagi buyuk davlatsan! Sen baxtli davlatlar qatoridan o‘rin olib, tenglar ichra teng bo‘lding! Biz – sening farzandlaring - bo‘lmish barkamol avlod vakillari ozod va obod yurtimizning gullab-yashnashi, farovonligi, taraqqiyoti uchun kuchli bilim va tafakkurga ega bo‘lib, porloq istiqbolingga o‘z hissamizni qo‘shamiz.

Vatan b o‘ylaringga bo‘lay sadag‘a

Hoki poying o‘pay, shukr xudoga.

## **3-guruh:**

### **1-o‘quvchi:**

Barin qancha ulug‘lasang, bo‘ladi kam

Aziz erur bog‘laringgu, tog‘laring ham.

Osmoningda xumo quashing parvoz etsin

Alloh o‘zi asrab tursin ko‘rmagil g‘am

Adolatim, shijoatim, hur Vatanim

Senga fido bo‘lsin mening jonu tanim!

### **2-o‘quvchi:**

Bobolarim larza solib o‘tgan tuproq,

Momolarim alla aytib yoqqan chiroq.

Jon nekerak shu makondan ayrilgan choq,

Ollah bitta Vatan bergan peshonangga!

## **4-guruh:**

26 navqiron yoshing muborak, Vatanim! Mustaqillik kuni sening istiqlolga erishgan, jahon xaritasida yangi, mustaqil va suveren davlat – O‘zbekiston Respublikasi paydo bo‘lgan, xalqning asriy orzu-intilishlari ro‘yobga chiqqan buyuk tarixiy sanadir. O‘zbekistonning davlat mustaqilligi xalqimizning milliy manfaatlarini, tinch va osuda hayotini ta‘minlash, mamlakatimizning xalqaro miqyosdagi obro‘-e‘tiborini yuksaltirishning mustahkam poydevori bo‘lib kelmoqda.

**2-topshiriqda guruh a'zolari Mustaqilligimizning 26 yilligi munosabati bilan e'lon qilingan bosh g'oyaning har bir harfiga biror shoir, yozuvchi yoki buyuk shaxslarning nomi va uning ijodidan namunalar aytishi lozim bo'ladi. "FIDOYING BO'LGAYMIZ SENI, O'ZBEKISTON!". Shuningdek bu mashg'ulot orqali o'quvchilarning kitobga bo'lgan qiziqishlari yanada rivojlantiriladi.**

**O'qituvchi:**

Qadrli o'quvchilarim, inson tug'ilib kamolga yetar ekan, pog'onama-pog'ona ma'naviy oziq oladi, hayotiy saboqlari uyg'unlasha boradi. Kitob o'qish esa shu ma'naviy ozuqa qurolidir.

Jahonda kitobdan yaxshi yor bo'lmas,

Davr g'amxonasida g'amgusor bo'lmas.

Yolg'izlik kunjida undan har qachon,

Ming rohat yetar, lekin bir oz bo'lmas.

Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning 2017-yil 12-yanvardagi "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutoalasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi farmoyishlari kitobga bo'lgan e'tiborni yanada kuchaytirish uchun qilingan xayrli ishlardan biri bo'ldi.

Barchamiz kitobga oshno bo'lib, yanada ko'proq kitob mutolaa qilaylik. Bu esa ma'naviy boyligimizning yanada boyishi uchun asos bo'ladi. Quyidagi topshirig'imiz orqali sizlarning qanchalik kitobxonligingizni sinovdan o'tkazib olamiz.

Masalan:

**F** – Forobiy, "Fozil odamlar shahri"

**I** – Ibn Sino, "She'r san'ati"

**D** – Durbek, “Yusuf va Zulayho”  
**O** – Ogahiy, “Fidavs-ul-iqbol”  
**Y** – Yusug Xos Hojib, “Qutadg‘u bilig”  
**I** – Islom Karimov, “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”  
**N** – Nasafiy, “Bahoriyot”  
**G** – Gulhaniy, “Zarbul-masal”

**B** – Buxoriy, “Al-adab al-mufrat”  
**O‘** – O‘tkir Hoshimov, “Urushning so‘nggi qurboni”  
**L** – Lutfiy, “Sanga ne”  
**G** – Ganjaviy, “Maxzan-ul asror”  
**A** – Alisher Navoiy, “Xamsa”  
**Y** – Yassaviy, “Devoni hikmat”  
**M** – Maxmud Qoshg‘ariy, “Devonu lug‘otut turk”  
**I** – Ibrat, “Tarixi Farg‘ona”  
**Z** – Zahiriddin Muhammad Bobur, “Boburnoma”

**S** – Sayfi Saroyi, “Suhayl va Guldursun”  
**E** – Erkin Vohidov, “Ruhlar isyoni”  
**N** – Nodira, “Firoqnoma”  
**I** – Iqbol Mirzo, “Aytgil, do‘stim, nima qildik Vatan uchun?”  
**O‘** – O‘lmas Umarbekov, “Odam bo‘lish qiyin”  
**Z** – Zulfiya, “Hayot varaqlari”  
**B** – Beruniy, “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorlilar”  
**E** – Ernest Seton Tompson, “Yovvoyi yo‘rg‘a”  
**K** – Kaykovus, “Qobusnoma”  
**I** – Izzat Sulton, “Mir Alisher Navoiy”  
**S** – Sa‘diy Sheroziy, “Guliston”

**T** – Turdi Farog‘iy, “Tor ko‘ngillik beklar”

**O** – Oybek , “Navoiy”


**N** – Ne‘mat Aminov, “Chol bolaning ertaklari”

**3-topshiriqda guruh ishtirokchilari birgalikda “Klaster” usuli yordamida quyidagilarni bajarishlari lozim bo‘ladi:**

**1-guruh: “Ma’naviyat”**



**2-guruh: “Ma’rifat”**




**3-guruh: Ijodkor”**



**4-guruh: “Shijoat”**





**V. Rag‘batlantirish:** Darsda faol qatnashgan o‘quvchilar “26” raqami ostida “Fidoying bo‘lgaymiz seni, O‘zbekiston!” shiori yozilgan rag‘bat kartochkalari orqali rag‘batlantiriladi.



**O‘qituvchining yakuniy so‘zi:**

Aziz o‘quvchilarim! Vatan – ilohiy maskan, ona kabi yagonadir. Mashhur adibimiz Abdulla Qodiriy aytganlaridek: “moziyga qaytib ish ko‘rish xayrlik, deydilar” degan so‘zlarga amal qilib, Vatanimiz tarixini yanada ko‘proq o‘rganaylik. Muhtaram birinchi Prezidentimiz Islom Karimov aytganlaridek : “Biz ona Vatanimiz istiqbolini, uning sha’ni-shavkatini qanday himoya etishni otabobolarimizdan meros qilib olishimiz va uning himoyasiga hamisha tayyor turmog‘imiz lozim ”. Davlatimiz rahbari Shavkat Miromonovich Mirziyoyev aytganlaridek “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz”. Buning uchun esa har birimiz “Fidoying bo‘lgaymiz seni, O‘zbekiston!” degan bosh g‘oyani dilimizga jo aylab, amalda qo‘llamog‘imiz ham qarz, ham farzdir.

Dars yakunlanishidan avval o‘quvchilar bilan birgalikda Yulduz Usmonova ijrosidagi “Adoying bo‘lgaymiz seni, O‘zbekiston!” qo‘shig‘i ijro etiladi

**O‘quvchilar :**

Daryolaring qon tomirim

Tog‘laringdur ko‘kragim.

Ayvonida osilgandir

Ming asrlik yaktagim.  
Nega so‘nib, yondi quyosh  
Sen botmading oftobim.  
Beshigida bek tug‘ilgan,  
Sultonimsan, Vatanim!

**VI. Uyga vazifa berish.** Uyga vazifa sifatida “Fidoying bo‘lgaymiz seni, O‘zbekiston” mavzusida matn tuzib kelish.

### **Xulosa**

Xulosa qilib aytganda shuni aytishimiz mumkinki, bunday darslarni tashkil etish orqali o‘quvchilarning faolligi oshiriladi, mustaqil fikrlash doirasi kengayadi. Barcha o‘quvchilarning darsda ishtirok etishi ta‘minlanadi. Turli usullar asosida o‘quvchilarning har tomonlama bilimi boyitiladi. Guruhlarga nom tanlashda ham ozroq etibor berilsa, o‘quvchi rag‘bati kuchayadi. Barcha shartlar bajarilishi jarayonida o‘quvchining fikri qo‘llab-quvvatlab turilsa, ular faolligi yanada oshib, ochilmagan qirralari ham ochiladi.

Mustaqillik darslari haqida fikr bildirmoqchi bo‘lsak, bu dars orqali o‘quvchilarning vatanga bo‘lgan muhabbati oshiriladi. Uning tarixi haqida bilimlari yanada boyitiladi. Chunki “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q”. Vatanimizning buyuk kelajagini qurish uchun esa mard va oliyjanob bo‘lish talab etilmoqda. Buning uchun esa yosh avlod kuchli bilim, yuksak ma‘naviyat va aqliy salohiyatga ega bo‘lishlari kerak. Biz ustozlar esa o‘quvchilarimizni ana shunday komil inson qilib tarbiyalashdek mas‘uliyatli ishda yanada shijoat va yangiliklarni o‘rgangan holda chuqur bilim berishga astoydil bel bog‘lamog‘imiz shart va zarur.

Mamlakatimizda hukm surayotgan tinchlik – osoyishtalikning qadriga yetishimiz kerak.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. I.Karimov “Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch”
2. [www.tilvaadabiyot.uz](http://www.tilvaadabiyot.uz) sayti
3. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz) sayti.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash - yurt taraqqiyoti va farovonligining garovi // "Xalq so'zi" // 2016- yil 8 –dekabr.
2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T., O'zbekiston, 2017.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – T., O'zbekiston, 2018.
4. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi. T., 2017
5. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev. Jismoniy va ma'naviy barkamol yoshlar – bugungi va ertangi kunimizning hal qiluvchi kuchidir. "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatining IV quriltoyida so'zlangan nutqi. 2017-yil 30-iyun.
6. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev. Ozod va obod vatanning barkamol farzandlari. Jizzax shahrida bo'lib o'tgan "Barkamol avlod" sport o'yinlari qatnashchilariga yo'llangan tabrik so'zi. 2017-yil 25- may.
7. Каримов. И.А. Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. Т., Шарқ, 1997.
8. Каримов И. А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т., Маънавият, 2008
9. Каримов И.А.Ватан равнақи учун ҳар биримиз масъулмиз. – Т., Ўзбекистон, 2001. 9-жилд.
10. Каримов И.А. Истиклол ва маънавият.-Т., Ўзбекистон, 1995.
11. Каримов И.А. Адабиётга эътибор - маънавиятга, келажакка эътибор. – Т., Ўзбекистон, 2009.
12. Абдурахмонова У. Бутун борлиқ ижодхона. //Til va adabiyot ta'limi. –Т., 2014, №10.

13. Асадов Й.М. Таълимда компетенциявий ёндашув. //Maktab va hayot. –Т., 2014, №1.
14. Зуннунов А., Хотамов Н., Эсонов Ж., Иброҳимов А. Адабиёт ўқитиш методикаси. Т., Ўқитувчи, 1992.
15. Ёқубов Одил. Танланган асарлар. II жилд. –Т., Шарқ, 2007.
16. Йўлдошев Қ. Адабиёт ўқитишнинг илмий-назарий асослари. Т., Ўқитувчи, 1996.
17. Yo‘ldoshev Q, B.Qosimov, V.Qodirov, J.Yo‘ldoshbekov. Adabiyot. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik- majmua. Т., 2013.
18. Yo‘ldoshev Q, Qodirov V, Yo‘ldoshbekov J. Adabiyot. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik- majmua.Т., 2015.
17. Madayev O. Adabiyot darsliklari va milliy mafkura // Til va adabiyot ta’limi// – Т., 1998, №2-son. В. 9-16.
18. Матжонов С. Мактабда адабиётдан мустақил ишлар. – Т., Ўқитувчи, 1996.
19. Мирқосимова М.Ўқувчиларни адабий – эстетик таҳлилга ўргатиш. – Т., Ўқитувчи, 1994.
20. Муслимов Н.А. Бўлажак касб таълими ўқитувчисини касбий шакллантириш. –Т., Фан, 2004.
21. Ниёзметова Р. Ўзбек тили дарсларида янги ўзбек адабиётини ўқитиш масалалари. Т., 2010.
22. Ражабова И. Адабиёт дарсларини интерфаол усулларда ташкил этиш. – Т., Тамаддун, 2010.
23. Толипов Ў., Усмонбоева М. Педагогик технологияларнинг татбиқий асослари. – Т., Фан, 2006.
24. Турдиев Н. Таянч компетецияларни шакллантириш. //Umumta’lim fanlari metodikasi//– Т., 2014, №3. –2-3-бетлар.
25. То‘хлиев В., Sarimsoqov B. Adabiyot (akademik litseylar uchun o‘quv dastur). – Т., О‘қитувчи, 2008.

26. To‘xliyev B. Adabiyot. Akademik litseylarning birinchi bosqichi uchun darslik. – T., O‘qituvchi, 2014.
27. To‘xliyev B., Niyozmetova R.va b. Til va adabiyot ta’limining zamonaviy texnologiyalari. – T., T., 2011.
28. To‘xliyev. B. O‘zbek adabiyoti o‘qitish metodikasi. – T., Yangi asr avlodi, 2006.
29. Ўрта махсус, касб ҳунар таълимининг умумтаълим фанлари Давлат таълим стандартлари ва ўқув дастури. – Т., Шарқ, 2008.
30. Қамбарова С. Мустақил мутолаа ва адабий таҳлил. Т., 2015.
31. Қодиров В. Мумтоз адабиёт: муаммо ва ечимлар. Т., 2009.
32. Qodirov B. Muammolar qulfining kaliti. // Til va adabiyot ta’limi// – T., 2017, 10-son.
33. Хусанбоева Қ.. Адабиёт-маънавият мустақил фикр шакллантириш омили. Т., 2009.
34. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. –Т., “Ўзбекистон Миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2003. 5-жилд.
35. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. –Т., “Ўзбекистон Миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2003. 2-жилд.

#### **Internet ma’lumotlari:**

[www.literatura.uz](http://www.literatura.uz)  
[www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)  
[www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)  
[www.o‘zbek adabiyoti. Com](http://www.o'zbekadabiyoti.com)  
[www.til](http://www.til.uz) va [adabiyot.uz](http://adabiyot.uz) sayti